

**O‘BEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI
VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI
BOSHLANG‘ICH TA’LIM FAKULTETI**

“HIMOYAGA RUXSAT ETILSIN”
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti dekani,
prof., A.Xazratkulov _____
“ _____ ” 2023- yil

KERIMOVA MAQSUDA SHERIPBOY QIZI ning
3-SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA TURLI ISH
MATERIALLARIDAN AMALIY MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH
METODIKASI
mavzusidagi bakalavr akademik darajasini olish uchun bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish”
yo‘nalishining IV bosqich, 401-guruh talabasi
Kerimova Maqsuda Sheripboy qizi
Ilmiy rahbar: ped.f.n.dots. X.Sanakulov

Taqrizchi: _____

“HIMOYAGA TAVSIYA ETILSIN”
“Boshlang‘ich ta’limda matematika va uni o‘qitish metodikasi”
kafedra mudiri, p.f.n., dotsent X.Sanakulov

_____ 2023-yil

Toshkent-2023

MUNDARIJA

KIRISH

I.BOB. BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA TA'LIMI DARSLARIDA TABIIY MATERIALLARDAN BUYUMLAR TAYYORLASHNI O'RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI

- 1.1. 3- sinf texnologiya ta'limi darslarida tabiiy materiallar bilan ishlashning
hozirgi holati
- 1.2. Boshlang'ich sinf texnologiya ta'limi darslarida tabiiy materiallardan
buyumlar tayyorlashni nazariy asoslari
Birinch bob bo'yicha xulosalar

2. BOB. 3- SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA TURLI MATERIALLAR BILAN ISHLASH METODIKASI

- 2.1. 3- sinf texnologiya ta'limi darslarida turli materiallardan buyumlar
tayyorlashni o'rgatishning shakl va metodi
- 2.2. Boshlang'ich sinf texnologiya ta'limi darslarida turli materiallardan
buyumlar tayyorlashni o'rgatishda ta'lim texnologiyasidan
foydalanish
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

3.BOB. TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJASI VA TAHLILI

- 3.1. Tajriba-sinov ishlari mazmuni va mohiyati
Uchunch bob bo'yicha xulosa

UMUMIY XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

ILOVALAR

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi davr va erkin iqtisodiyotga asoslangan hozirgi zamon talabidan kelib chiqib, Davlat ta'lim standartlari doirasida zamonaviy mutaxassis sifatiga qo'yilgan talablar kuchaytirildi: mustaqil bilimlarni to'ldirish va yangilash ko'nikmasi, izlanish olib borish, yangi yechimlar qabul qilish, ijodkor shaxs bo'lish, mustaqil fikr yuritish barkamol shaxs sifatлари tarkibini tashkil etdi. O'zbekistonning xalqaro talablardagi zamonaviy taraqqiyotini ta'minlay oladigan dadil, mustaqil, ijodiy tafakkurli, malakali, bilimli mutaxassis, ayni paytda shaxsiy insoniy sifatleri shakllangan barkamol kadrlarni tayyorlash maqsadini ko'zlaydi. Mustaqil Respublikamizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilishdan ko'zlangan muhim vazifalardan biri o'qitishning ilg'or, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, interfaol usullarini joriy etish orqali har tamonlama yetuk, mustaqil fikrlovchi, intellektual salohiyati yuqori bo'lgan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonun ta'lim tizimini tubdan isloh qilish uni rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini belgilab bergan. Shundan kelib chiqib xujjatda shaxs-kadrlar tayyorlash tizimining asosiy sub'ektiv va ob'ektiv sifatida qaraladi, demak, Respublikada amalga oshiralayotgan o'zgarishlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi – inson, uning barkamol rivojlanishi hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish, tadbirkorlik muammosi butun dunyo iqtisodchilari, sotsiologlari, faylasuflari, psixologlari, pedagoglarini doimo qiziqtirib kelgan muammolardan biridir. Barcha fanlar sohasidagi olimlar tadbirkorlikning jamiyat taraqqiyoti uchun o'ta muhim va zarurligini e'tirof etishadi.

Texnologiya ta'limi va kasbga tayyorgarlik muammolari bo'yicha L.P.Uzoqova N.A.Muslimov, M.E.Haydarov, H.R.Sanakulov, I.Islomovlar

ilmiy-tadqiqot ishlarida texnologiya ta'limini tashkil etish muammolari, o'quvchilarda kasbiy bilim va malakalarni shakllantirish nazariyasi va amaliyoti bo'yicha tadqiqot ishlari olib borishgan.

BMIning ob'ekti: 3-sinf texnologiya ta'limi darslarida turli materiallardan buyumlar tayyorlashni o'rgatish jarayoni.

BMIning predmeti: 3-sinf texnologiya ta'limi darslarida tabiiy materiallardan buyumlar tayyorlashni o'rgatish asosida tashkil etish.

BMIning maqsadi: 3-sinf texnologiya ta'limi darslarida turli materiallardan buyumlar tayyorlashni o'rgatishni samarali shakl va usullarini aniqlashdan iborat.

Muammoning maqsadi, ob'ekti, predmeti va ilmiy farazlaridan kelib chiqqan holda tadqiqotning vazifalari belgilab olinadi:

BMIning vazifasi:

- ☐ boshlang'ich sinf texnologiya ta'limi darslarida tabiiy materiallardan buyumlar tayyorlashni o'rgatishning mazmuni aniqlash;
- ☐ boshlang'ich sinf texnologiya ta'limi darslarida tabiiy materiallardan buyumlar tayyorlashni o'rgatishning maqbul shakl, vosita va usullarini belgilash;
- ☐ tajriba-sinov ishlari yordamida texnologiya darslari tabiiy materiallardan buyumlar tayyorlashni o'rgatish metodikasini ishlab chiqish;
- ☐ tajriba-sinov natijalari asosida texnologiya ta'limi darslarini samarali tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar berish.

BMIning metodlari - mavzuga oid ilmiy adabiyotlar va maqolalar tahlili; ilg'or boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ish tajribalarini umumlashtirish; muammoga tegishli bo'lgan maktab hujjatlari va o'quvchilarning ijodiy ishlarini o'rganish; maqsadli kuzatuv, savol-javob; pedagogik eksperiment; to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish .

Tadqiqotning metodologik asoslari “Ta’lim to’g’risida”gi qonun, mustaqil O’zbekistonning ma’naviy-ma’rifiy rivojlanish tamoyillari; xalq pedagogikasi an’analari; muammoga oid darslik va qo’llanmalar xizmat qildi.

Tuzilishi va hajmi. Kirish, uning uch bobi, beshta tarkibiy qismi, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati o’z ifodasini topgan.

I.BOB. BOSHLANG’ICH SINF TEXNOLOGIYA TA’LIMI DARSLARIDA TABIIY MATERIALLARDAN BUYUMLAR TAYYORLASHNI O’RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. 3- sinf texnologiya ta’limi darslarida tabiiy materiallar bilan ishlashning hozirgi holati

Texnologiya darslarida o’quvchilar tabiiy materiallar bilan ishlash haqida maxsus bilim, malaka va ko’nikmalarni egallaydilar, borliqni va tabiatni estetik jihatdan idrok etishni o’rganadilar va bu ularning fikrlash qobiliyatini, ko’rish xotirasini, ijodiy tasavvurini rivojlantiradi, ijodiy qobiliyatini o’stirishga, dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi. SHaxsni har tomonlama kamol topishiga muhim o’rin tutadi.

Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida texnologiya ta’limi va tarbiyasi vazifalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o’quvchilarni tabiatdagi, tevarak-atrofdagi narsa va voqealarga estetik munosabatni tarkib toptirish, ularda go’zallikni his qila bilishga, tushunishga hamda shu his va tushunchalarni hayotga tadbiq etishga o’rgatish;
- tabiatga nisbatan estetik va emotsional sezgirlikni o’stirish;
- muntazam va maqsadga muvofiq ravishda ko’rib-idrok qilishni, rang sezishni, kompozitsion madaniyatni, fantaziyani ko’rish orqali tasavvur qilish va kombinatsiyalashni, ijodiy vazifalarni aniq obrazlarda hal qilishni tarbiyalash;
- tabiiy materiallar bilan ishlashni o’ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish;
- ularda tabiatga nisbatan emotsional idrok, ijodiy qobiliyat, did, tasavvurni o’stirish;

-turli tabiiy materiallardan rang-barang o'yinchoqlar va ko'rgazmalar yasashga o'rgatish;

-tabiiy materiallar asosida ishlash asnosida ularda ijodiy texnik malakalarni rivojlantirish.

Tabiiy materiallar bilan ishlash mashg'ulotlarning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarga estetik, badiiy va ijodiy tarbiya berishdir. Estetik tarbiya – bu o'quvchilarni hayotdagi, tabiatdagi, san'atdagi kishilarning munosabatlardagi go'zallikni to'liq idrok etish qobiliyatini tarbiyalash va go'zallik qonunlari asosida ijod etishga o'rgatishdir. Zotan, go'zallik bolaning aqliga, qalbiga, irodasiga ta'sir qilib, ma'naviy dunyosini boyitadi.

Hozirgi vaqtda maktabning asosiy vazifalardan biri o'quvchilarga borliqni faqat ijodiy o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj va qobiliyatini shakllantirishgagina emas, balki go'zallik qonunlari asosida borliqni qaytadan ko'rish hissini tarbiyalash hamdir.

Jamiyatimizning har bir kishisi qaysi sohada ish olib borayotganligidan qat'iy nazar, go'zallik va nafislikni ko'ra olish va tushuna bilishi kerak. O'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash maqsadida o'qituvchi texnologiya darslarida ularga tabiatdagi go'zallikni, shakl va ranglarning turli-tumanligini ko'rsatadi. Bolalarga quvonch, hayajon baxsh etgan tabiat go'zalliklari so'z bilan tasvirlab bo'lmas rang birikmalari shaklida uzoq vaqtlargacha ularning xotirasida qoladi.

Manzara, daraxtlar, barglar va gullarning o'ziga qarab rasmini chizish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali bolalar tabiatga ko'proq qiziqadigan bo'ladilar. Bunday darslar bolalarga dunyoni keng va atroflicha ko'ra olishga, shuningdek, ko'rish orqali olgan taassurotlari doirasini kengaytirishga, atrof-borliq haqida aniq va to'liq tushunchalar hosil qilishga yaqindan yordam beradi.

Texnologiya ta'limi dasturida o'quvchilar texnologiya darslarida egallashi lozim bo'lgan ilmiy-texnik bilimlarning, texnologiya ko'nikmalarini va malakalarini hajmi hamda mazmuni belgilab beriladi.

Texnologiya malakalari va ko'nikmalarini shakllantirish jarayonidagi mashqlar texnologiya malakalari va ko'nikmalarini shakllantirishga mo'ljallangan mashqlar faqat vaqtga ko'ra taqsimlanganda hamda ma'lum tizim asosida o'tkazilgandagina ijobiy natija beradi. Mashqlar tizimi quyidagi asosiy talablarni o'z ichiga oldadi:

1. Mashqlarning materialli qiyinlikni oshib borishini nazarda tutgan holda joylashtirish lozim.
2. Keyingi materialning hammasi to'liq tarzda oldingi materialga asoslanishi lozim.
3. Mustaqillik darajasi ortib borilishi kerak.

Texnologiya malakasi muvaffaqiyatli bo'lishi bir qator shartlarga bog'liq. O'quvchi o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirmas ekan, uning malakasi xech qachon to'liq bo'lmaydi. Nazoratning yo'qligi ko'pincha xato va nuqsonlarning mashqlar jarayonida ortib borishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida yetilmagan harakat va usullarning shakllanishiga sabab bo'ladi.

Boshlang'ich sinfda texnologiya ta'limidan amaliy ishlar. Texnologiya ta'limi darslarida o'quvchilar ijtimoiy ishlab chiqarish texnologiyaiga tayyorlashning ilk bosqichlarini o'rganadilar. Birinchi sinfda o'quvchilar eng avvalo faqat dars mashg'ulotlaridagina emas, balki boshqa darslarda ham to'qnash keladigan materiallar bilan tanishadilar. Qog'oz va karton bilan ishlash, gazlamaga dastlabki ishlov berish, turli materiallar bilan ishlash, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish hamda uy ro'zg'or texnologiyai va shu kabilar bilan tanishadilar. Amaliy ishlar jarayonida o'quvchilarda texnologiyasevarlik, materiallarni tejimli sarflash, texnologiyaga ijodiy yondashish, tabiatga extiyotkorli bilan munosabatda bo'lish, texnologiya madaniyatini tarbiyalash, ularga ayrim kasblar haqida tushunchalar berib boriladi.

O'quvchilarga texnologiya tarbiyasi berishni asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarga materiallarga ishlov berish ko'nikmalarini hosil qilish va ularga shunga muvofiq bilimlarni berishdir.

Texnologiya ta'limi o'zining bosqichlarida bolalar, o'smirlar va yoshlarning yoshi, funktsional imkoniyatlarning o'ziga xosligi, ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy mavqesiga muvofiq ravishda ko'p tomonlama yo'nalishga ega bo'lishi lozim. U quydagilarni taqozo etadi.

1. Texnologiyasevarlikni tarbiyalash, texnologiya qilishga ehtiyojni, unga ongli, ijodiy munosabatda bo'lishni, o'z mahoratini doimo takomillashtirishga intilishni shakllantirish;
2. Kasbiy faoliyati uchun ahamiyatli bo'lgan psixo-fizologik funktsiyalarni, shaxsni kasb-korlik jihatidan muhim bo'lgan umumiy va shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantirish;
3. Tanlagan faoliyat sohasiga kasbiy faoliyatni keng politexnik bilim doirasi va kasbiy harakatchanlik bilan birga qo'shgan holda shakllantirish;
4. Bunyodkorlik faoliyati jarayonida haqiqiy texnologiya munosabatlariga kirish, jamoa texnologiyaiga ijtimoiy tajriba to'plash;
5. SHaxsning barcha sohalarida madaniyatni tarbiyalash;
6. Zamonaviy iqtisodiy bilimlarni egallash, yangicha iqtisodiy tafakkurni, omilkorlikni shakllantirish, haqiqiy iqtisodiy faoliyatida ishtirok etish;
7. Mustaqillikni, tashabbuskorlikni tarbiyalash, muammoli vaziyatlarni ijodiy ravishda hal qilishda hozirlikni shakllantirish, ishlab chiqarishni boshqarishda ongli ravishda va faol ishtirok etish.

Texnologiya darslarining ish unumini oshirish usullari. O'quvchilarni ish unumini oshirish, chuqur bilim egallash, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish masalalari texnologiya ta'limi darslarida hal etiladi. Har bir dars o'quvchilarni diqqatini, xotirasini, qiyoslay bilishini, fikr yuritishni, asosiy narsani ajratishni, xulosa va umumlashtirishni, o'z ishni rejalashtirishni, uni kerakli suratda amalga oshirishni, o'z-o'zini nazorat qilish vazifalarini o'z ichiga olidi.

Dars mazmuniga qo'yiladigan muhim talablardan biri darslarni hayot bilan chambarchas aloqador bo'lmog'i lozim.

O'quvchilarni faollashtirish ayniqsa o'qitishning zamonaviy bosqichi sharoitlarida anchagina murakkabdir.

SHuning uchun o'quvchilarning o'quv faoliyatlarini faollashtirishga yordam beruvchi vosita va usullarini tanlash o'qituvchining doimo diqqat markazida bo'lishi shart.

O'quvchilarning ish unumini oshirish va ijodiy faoliyatlarini bir qator usullar vositasida faollashtirish mumkin. Bu usullarni ba'zilar bilan tanishtiramiz:

1. Butun sinfga taklif etilgan muayyan ijodiy ishlarda o'quvchining iloji boricha mustaqil ishlashini ta'minlash.
2. Bir maqsadda o'qitishning alohida va umumiy shakllarini biriktirish usullari bilan birga maxsus tarqatma materiallaridan foydalanish.
3. Faoliyat turlari o'rganilayotgan material bilan to'g'ri munosabatni ta'minlash.
4. Dastur materiali asosida darsda zehnlilik, diqqat, tasavvur va shu kabilarni tekshirish hamda shakllantirish maqsadida o'ziga xos konkurslar o'tkazish.

Dars vazifasini faqat bilim berish va ko'nikma hosil qilishdan iborat qilib qo'ymasligi balki tarbiya berish va kamol toptirish vazifalari bilan organik bog'lab olib borish ham zarur.

Shuning uchun ham o'qituvchi o'zi o'qitayotgan bilimini bilish lozim. Bu esa biror mavzuga tayyorlana turib, o'qituvchi mazkur dars materiali asosida o'quvchilarni ahloqiylikning qanday g'oyalarini anglashga olib kelajagini diqqat, fikrlash, xotira, tasavvur, irodani rivojlantirish va boshqa shu kabilar sohasida shaxs sifatini qanday kamol toptirishga erishishni aniq tasavvur qilmog'i lozim.

1.2. Boshlang'ich sinf texnologiya ta'limi darslarida tabiiy materiallardan buyumlar tayyorlashni nazariy asoslari

Qo'l mehnati ishi texnologiyasiga o'rgatishda boshqa fanlarni bo'lganidek, o'qitishning xilma-xil usullarini qo'llab, o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini egallab olishlariga, shuningdek, bilish qobiliyatlarni rivojlanishiga erishiladi.

O'quvchilar bayon etilayotgan aynan buyum emas, balki o'z so'zlari bilan buyumni bajarilishini yod etishlari talab etiladi.

Biroq asosiy o'rinni hali ham namuna, tayyor ko'rgazma bo'yicha ishlash egallaydi. Hozirgi zamon maktabi darsning zamonaviyligini oshirdi, takomillashtirishda va unga saykal berdi. O'qituvchi darsga tayyorlanar ekan, har bir tayyor mavzu mazkur dars uchun uning maqsad va vazifalariga muvofiq keladigan ishni usul va ko'rgazmali qurollarni tayyorlaydi.

Qo'l texnologiyai darslarida odatda bir yoki ikki asbobdan foydalaniladi. Ularni esa navbatchilar tarqatadi. Stolning ustida diqqatni chalg'itadigan xech qanday ortiqcha narsa bo'lmasligi kerak.

Asboblarni, ayniqsa kesuvchi asboblarni charm g'ilofda saqlangani ma'qul. Har bir g'ilof asbobning ma'lum turiga mo'ljallangan bo'ladi. Navbatchi o'qituvchi asboblarni tarqatishni doimo birinchi partadan boshlaydi, bunda o'quvchilar tartib va tejamkorlikka o'rganadilar.

Xamma foydalanadigan asboblarni sinf shkaflarda saqlanadi, ishdan so'ng asboblarni o'quvchilar tozalab yuvib, artib navbatchi o'quvchi o'qituvchiga topshiradilar.

Texnologiya darslarida birinchi sinf o'quvchilarining ishlarini kuzatish natijasida o'qituvchini topshirig'larini olib, buyum narsani xuddi namunadagidek yasash uchun namunani uning qurilishi nuqtaiy nazardan sinchiklab qarab chikib, buyumni yasash yo'llarini kunt bilan izlaydilar. Birinchi sinf texnologiya darslarida, oddatda tayyorlanishi kerak bo'lgan buyum narsaning namunasi ko'rsatiladi. Bunda birinchi sinf o'quvchilari uchun real, buyum narsa, buyumning namunasi zarurligi nazarda tutiladi, bolalar unga qarab maskur buyum narsa

qanday qilinganligini, qanday qilib xuddi manashunday tayyorlash mumkinligini o'ylab oladilar.

O'qituvchi yangi mavzuvga metodik jihatdan qanchalik to'g'ri yondashmasin, uni suxbat va ko'rsatmada qanchalik tushinarlik qilib izoxlamasin, baribir bolalar dastlabki vaqtlarda texnologiya usullarini har doim ham to'g'ri ko'llayvermaydilar. O'quvchi ko'p savollarni mustaqil hal qilishi kerak. O'quvchilarning hayotga mustaqiligi aktiv fikirlash faoliyatini, tashabbusni paydo bo'lishi, uchragan qiyinchiliklarni yengishi, avval hosil qilingan texnologiya bilimi va malakalarini oqilona va ijodiy qo'llay bilishni o'rganish lozim.

Mustaqil mashg'ulot soatida asosiy aktiv shaxs bolalar. Lekin bunga qaramay darsning bu bosqichida ham o'qituvchining vazifasi benihoyat katta va ma'suliyatlidir. Bunday mashg'ulotlarda maqsadni aytib, ish usullarini ko'rsatib qo'ya qolish kifoya, bolalar erkin ishlashi kerak deb o'ylash katta xato bo'ladi. O'qituvchi mumkun qadar kamroq so'zlashni, sekin ohista ovoz bilan gapirishni odat qilishi, o'quvchilarga sezdirmay ularning xarakterini kuzatish, ularning yaqinlashishi va uzoqlashishini, o'rniga qarab gapirishni yoki jim turishni o'rganishi lozim. Qoloq o'quvchini yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchiga biriktirib ko'yish kerak. Masalan tikishda o'g'il bolalar odatda orqada qoladilar ularga qizlar yordamini biriktirib qo'yish kerak, aksincha texnikaviy modellashda o'quv tajriba xovlisidagi ishlarda bolalar qizlarga yordamlashishlari kerak.

Shu tarzda o'quvchilarda o'rtoqlarcha o'zaro yordam hissi tarbiyalanadi. O'qituvchi har bir o'quvchining imkoniyatlarini hisobga olib bolalarni rag'batlantirishi lozim. Bolalar mustaqil ishlayotganda o'qituvchining texnologiyai oson emas, balki yanada qiyinroq, biroq ijodiy texnologiya singari huzrbaxshdir.

O'quvchilar mustaqil ishlayotganda o'qituvchi passivdek ko'rinadi, lekin aslida o'qituvchi oldida u rahbarlik qilishi lozim bo'lgan xilma-xil xususiyatli o'ttiz-qirq bola bor. Bazilarni butun dars davomida bezovta qilmaslik lozim bo'lgan xilma-xil xususiyatli o'ttiz-qirq bola bor. Ba'zilarni esa butun dars davomida bezovta qilmaslik lozim, boshqalarga ko'rsatma berish kifoya, qolganlari

yordamga muhtojdir. Mustaqil mashg'ulot vaqtida bolalar qo'ng'iroqni ham sezmay qoladilar xatto ishini davom ettirishga ruxsat etilsa quvonadigan xollar ham bo'ladi. O'zlariga yoqqan ishga sho'ng'ib ketib va tez ishlayodigan o'rtoqlarni ko'rib bolalar bora-bora o'zlarining ish su'ratini tezlashtirishni odat qilib oladilar. Ishni o'z vaqtida tekshirmaslik o'quvchini ishga qiziqishini kamaytiradi. Ishni tekshirish va baxolashga bolalarni o'zlari jalb qilishi kerak bu bilan texnologiyaga ular ongli munosabat, aktivlik va tashabbus rivojlanadi. Texnologiya natijalarini birgalikda tekshirish va baholash bolalarning xotiralarida ma'lum bir buyum tayyorlashning barcha bosqichlari, ayrim usullari tiklanadi. Uyga topshiriq berish darsning muhim bosqichidir. Texnologiyadan uyga bajarib kelish uchun beriladigan vazifani avvalo darsda ishni yaxshi uddalay olmagan o'quvchilarga berish zarur.

Boshlang'ich sinf Texnologiya ta'limida keng ma'nodagi Texnologiyaning ilmiy asoslari haqida emas, Texnologiya ta'limning elementlari to'g'risida gap boradi. Bu o'quvchilarda Texnologiyaning yutuqlariga nisbatan qiziqish uyg'onishiga yordam beradi. Politexnik bilimga ega bo'lish qo'yilgan Texnologiya vazifalarini bajarishda yordam beradi. Shuningdek, bu bilim kerakli amaliy ish bosqichlarini qanday va qaysi izchillikda amalga oshirish, qanday asboblarni qo'llash va uning sabablarini anglashga ko'maklashadi.

O'quvchilarni Texnologiyaga amaliy tayyorlash Texnologiya ta'limining muhim omillaridan biridir. Texnologiya ta'limida turli va tabiiy materiallar bilan ishlash U o'zaro bog'langan bir nechta elementlardan: oddiy asbob va moslamalardan foydalana bilish, u yoki bu materialga ma'lum izchillikda ishlov bera olish, yo'l qo'yilgan xatoni o'z vaqtida aniqlash va to'g'irlay olish kabilardan tarkib topadi.

Texnologiyaga amaliy tayyorlashni faqat kerakli bilimlar bazasida amalga oshirish mumkin. U boshlang'ich sinflarda boshlang'ich politexnik bilimlarga asoslanadi. Texnologiya ta'limining mazmuniga muvofiq o'quvchilar mazkur yosh uchun qulay bo'lgan materiallarga ishlov berish, qo'llaniladigan oddiy asbob va

moslamalardan foydalanish malaka va ko'nikmalarini egallaydilar. Oddiy asbob va moslamalar maxsus asbob va moslamalarning bosh asosi hisoblanadi.

Texnologiya tarbiyasi to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'lim muassasalarida o'quvchilar maktabga kelgan dastlabki kunlardanoq o'zlarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos Texnologiya faoliyatiga jalb qilinadilar. Bunda ular o'z-o'ziga xizmat qilish borasidagi eng oddiy yumushlarni bajaradilar (chunonchi, sinf xonasi ozodaligini saqlash, o'quv qurollarini ta'mirlash, kitoblarni yelimlash, o'quv anjomlarini darsga tayyorlash va hokazolar).

Texnologiyaga ruhiy, axloqiy va amaliy tayyorlash jarayonida o'quvchilarda mehnatsevarlik, Texnologik ta'lim praktikumni tashkil etish jarayonida intizomga bo'ysunish, maqsadni amalga oshirish yo'lida shijoat, qat'iyat ko'rsatish, axloqiy-irodaviy xususiyatlar tarbiyalanib boradi.

Texnologiya ta'limida turli va tabiiy materiallar bilan ishlash vazifalari haqida gapirilganda, o'quvchilarda mehnatsevarlik, mas'uliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashni tilga olmaslik mumkin emas. Shu bilan birgalikda Texnologiya odamlar tirikchiligining moddiy va ma'naviy ta'minotining vositasi, jamiyat taraqqiyotining eng muhim omilidir. O'quvchilarni barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida Texnologiya ta'limining roli ko'p qirralidir. Texnologiya o'quvchilarning bilim olishiga intilishlarini qo'zg'atuvchi vositagina emas, balki uning manbayi hamdir. Texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarni aqliy jihatdan o'stirishda jismoniy va aqliy Texnologiyani almashtirib turish muhim ahamiyatga egadir. Biroq har qanday Texnologiya ham aqliy o'sishga yordam bermasligini unutmasligimiz kerak.

Texnologiya ta'limida turli va tabiiy materiallar bilan ishlash shaxsning eng muhim iroda va axloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Texnologiya ta'limida Texnologik ta'lim praktikum jarayoniga psixologik tayyorgarlik, Texnologiya faoliyatining to'g'ri motivlari tarbiyalanadi, shaxsning har bir ongli mehnatkashkash uchun zarur bo'lgan sifatlari shakllanadi.

Darslarning jihozlanganligi o'z Texnologik jarayon uchun shaxsiy mas'uliyatni, Texnologik madaniyatini tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Agarda bolalar yomon jihozlangan sinfda, qo'pol, og'ir va yoshlariga nomunosib asboblardan bilan shug'ullansalar ish natijalari ko'ngildagidek bo'lmaydi.

Agarda bola har bir qadamda tartiblilikka, aniqlikka rioya qilish lozimligiga ishonch hosil qilmasa, bolalarni Texnologiyaga muhabbat ruhida tarbiyalashda muvaffaqiyatga erishish haqida gapirish qiyin.

Texnologiya ta'limida turli va tabiiy materiallar bilan ishlash malaka va ko'nikmalari u yoki bu texnologik jarayonida belgilangan tartibga va harakat izchilligiga rioya qilish kerakligini muntazam tushuntirib borish bilan birga bo'ladigan ko'p mashq qilishlar natijasida tarkib topadi.

O'quvchilar o'rtasida yo'lga qo'yilgan o'zaro yordam esa, ularda do'stlik, birodarlik, umumlashish, jamoatchilik kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

I bob bo'yicha xulosalar:

Hozirgi kunda respublikamizda umumta'lim maktablari hamda ularda tahsil olayotgan o'quvchilar sonining tobora ortib borishi natijasida, umumta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha fanlar qatori texnologiya ta'limi darslariga ham e'tiborni qaratish lozim, chunki bu fan o'quvchini kelajakda biror kasbni egallashi uchun boshlang'ich ma'lumotlarni berishi ko'rsatildi. Umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinflarida texnologiya ta'limi darslarini pedagogik o'yinlar orqali olib borishning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. O'quvchilarda texnologiya ta'limi o'quv materialini o'zlashtirish hamda fikrlash jarayonlarining samaradorligi, shu o'quv materialidan Fan mavzulari bo'yicha zarur bo'lgan xulosalarni chiqara bilishi, o'quv materialini umumlashtira olishi, maqsadiga erishuvchanligi, o'z fikrida qattiq turishi kabi xislatlarni tarbiyalash zarur. SHuning uchun o'quv materialining ilmiy, ta'limiy-didaktik va axloqiy talablar nuqtai nazaridan tanlanishi, bu materiallarni o'quvchilarga yetkazib berishda turli xil pedagogik o'yinlar

orqali yetkazib berilishi o'quvchilar bilim saviyasining oshishi ko'rsatib berildi. Umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinflarida texnologiya ta'limi darslarini o'qitishda pedagogik o'yinlarni o'qitish jarayonida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilindi.

2. BOB. 3- SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA TURLI MATERIALLAR BILAN ISHLASH METODIKASI

3- sinf texnologiya ta'limi darslarida turli materiallardan buyumlar tayyorlashni o'rgatishning shakl va metodi

O'zbekiston tabiati nihoyatda xilma-xil va g'oyat go'zaldir. Bu o'lka rang-barang tabiiy resurslar, foydali qazilmalar, o'simliklar, kushlar, daraxtlar, gullarga boydir. Tabiatda ajoyib narsalar ko'p, faqat uni ko'z bilan kuzatish va ilg'ay ola bilish kerak.

Texnologiyaga qiziqish va muxabbatni shakllantirish - bolalar tarbiya-sida asosiy masalalardan biridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini turli xildagi texnologiyai (ijtimoiy-xo'jalik, qo'l texnologiyai, tabiat quynidagi) negizida qobiliyatini, shaxsiy iqtidorini ertaroq ochish, kelajakda esa kasbni to'g'ri tanlashi yotadi. Tabiiy materaillar bilan ishlash o'z negizida o'quvchini ona tabiat bilan yaqinlashuviga, unga tejamkorlik va mehribonlik munosabatda bo'lish va birinchi texnologiya ko'nikmalarini shakllantirish kabi ulkan imkoniyatlariga egadir.

Tabiiy material – bolalar ijodiyotini rivojlantirish uchun asosiy tayanch hisoblanadi. O'quvchilarni o'yinchoq va buyumlar yasashda ulardan qanday

foydalanishni o'rgatish zarur. SHu maqsadda tabiiy materiallar burchagi tashkil etiladi. Tabiiy materiallar burchagini sinfxonasida, uyda tashkillashtirish mumkin.

Tabiiy materiallardan buyum va uyinchoqlarni tayyorlash –qiziqarli, oddiy bulmagan va judda yoqimli texnologiyadir.

Bola faoliyatida tabiiy materiallarning muhim o'rin tutishiga A.S. Makarenko diqqatini qaratgan. U, materiallar (loy, yog'ochqog'oz va x.k.) inson faoliyatga yaqinligini, materiallardan nodir buyumlar va madaniyatni yaratish mumkinligini aytib o'tgan. O'yinchoqlar va materiallarda nafaqat tasavvur, balki ulkan ijodiy fantaziya mavjudligini ta'kidlagan.

O'quvchilar tabiatga ekskursiyalar vaqtida turli xil tabiiy materiallar masalan: yong'oq, barglar, shoxchalarni, hovuz qirg'og'idan – chiroyli toshchalar, chag'onoqlarni olib kelishadi. O'quvchilar tabiiy materiallarni teradilar, ushlab ko'radilar, o'rganadilar. Bu esa materiallarning shaklini, rangini har birining xususiyatini eslab qolishga yordam beradi. Masalan, bolalar yong'oqning yumoloqligini, jigarrang ekanligini, ustki qismi g'adir-budur ekanligini bilib oladilar, cho'chqa yong'oq esa oval shaklda yaltiroq sariq-jigarrang, qo'g'a – tsilindr, yumshoq baxmalsimon, jigarrang bo'lishini bilib oladilar.

Tabiat bilan bo'lgan muloqat bolalarning tasavurini kengaytiradi, diqqat bilan kuzatish qobiliyatini shakllantiradi, tabiiy materiallardan buyumlar yaratishda idrokning bir butunligini saqlaydi. Buyumlarni yasashda o'quvchilar avval qiynalsalar, keyinchalik, uzluksiz texnologiya natijasida bolaning qo'llari o'ziga ishonch, aniqlik kabi sifatlarga ega bo'ladi va barmoqlari epchil harakat qiladi. Qul texnologiyai sensomotrikaning rivojlanishiga – qul va ko'z ishining mutunosibligini, harakat koordinatsiyalarini mukammallashuvishga, harakatlarning aniqligi asta-sekinlik bilan ko'nikmalar tizimi hosil bo'ladi. “Qobiliyat va iqtidor manbalari ularning barmoq uchlaridadir. Barmoqlaridan, obrazli qilib aytganda, ingichka jilg'a bo'lib ijodiy fikr manbasini oziqlantiradi” – deb yozadi V.A. Suxamlinskiy.

Tabiiy materiallar bilan ishlash bolaning aqliy rivojlanishiga, tafakkuri va fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga katta ta'sir qiladi. Tabiiy materialdan buyum tayyorlash jarayonini kuzatadigan bo'lsak, boshida bolalar namunani ko'rib chiqadilar, tuzilmasini tarkibini, tayyorlash usulini tahlil qiladilar; bu jarayonni o'zlashtirgandan so'ng ish murakkablashadi: Bolaga tayyorlanadigan o'yinchoqning rasmi yoki foto surati ko'rsatiladi va oxirida, ular topshiriq yoki o'zining o'ylagan fikri asosida buyumning yasaydilar.

O'yinchoqlarni tabiiy materiallardan tayyorlashning qiziqarliligi bolalarning diqqatini rivojlantiradi, uning mustaxkamligini oshadi. Erkin diqqat shakllanadi. Masalan, kuchukchani tayyorlashda bolalarga avval uning oyoqchalarini maxkamlash joylarini diqqat bilan ko'rib chiqib (ular simmetrik holda turishi past ham, baland ham bo'lmasligi, haqiqiyga o'xshashi kerak) teshiklarini belgilash, boshi va boshqa detallarini maxkamlash joylarini ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

Tabiiy materialdan qilingan buyumlar ko'pincha bolalarning qiziquvchanligini qoniqtiradi. Bu texnologiyada har doim yangilik, ijodiy izlanish, yanada yuqori natijalarga erishish imkoniyati bor. O'yinchoq-larning tayyorlashda bolalarni qullay emotsional yo'naltirish, texnologiyada muloqat quvonchi, chiroyli o'yinchoq yasash jarayonida roxatlanish hissi umumiy rivojlanishi uchun juda muhimdir. Tabiiy materiallardan o'yinchoqlar yasash texnologiyai bola shaxsining rivojlanishiga yordam beradi.

O'yinchoqni yasash oson ish emas. Uni yasashda noaniqlikga duch kelganda, u mustaqil ravshishda uni yechishga harakat qiladi. Ba'zan biron bir ishni yasash uchun kerakli o'lchamda to'ng'iz yong'og'ini (butur, shishka) tanlash, uyinchoq qismlarini o'lash yo'llarini amalga oshirish va x.k.

Kattalar yordami bilan bola omadsizlik sababini ularni yengish yo'llarini o'rganadi. SHu asnoda unda maqsadga intilish, qattiyatlik, boshlangan ishni oxiriga yetkazish kabi sifatlar shakllanadi.

Ushbu texnologiya turida o'z faoliyatini baholash va nazorat qilish sifatini shakllantirishning real imkoniyatlari bor.

Tabiiy matreialdan o'yinchoq yasash texnologiyai individual va jamoaviy bo'lishi mumkin. Kattalarga kabi bolalarga ham jamoaviy texnologiya ulkan quvonch olib keladi. Bu yerda shunisi muhimki, bolalar jamoaviy texnologiyaning natijasini, foydasini tushunishlari kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiiy material bilan ishlashni tashkil etish metodikasi didaktik printsiplariga asoslanadi: oddiydan murakkabga. Bunda muhim o'rinni harakatning takroriyligi printsiipi egallaydi. (masalan, yangidan buyumlarni yasashda o'qituvchi bolalarda oldin shakllangan mahoratiga malakasiga suyanadi). Oddiy asbobi va material bilan ishlash malakasini to'g'ri shakllantirish uchun o'qituvchining tushuntirishi va ko'rsatishi, kattalar nazorati ostida bolalarning ma'lum bir amaliy harakati zarurdir.

O'qituvchilar bolalarning texnologiyaga layoqatini, texnologiyaga bo'lgan ishtiyoqini yaxshi biladilar. Bolalarning o'yinchoq tayyorlashda ijodkorlikka undovchi bo'lib, rag'batlantirish, ya'ni bolaning yutuqlarini maqtash yaxshi natija beradi. Bolalarga tayyor bolalar yasagan buyumlar katta ta'sir ko'rsatadi. Ular bolalarda texnologiyaga nisbatan qiziqishni shakllantirishga omil bo'la oladi. Tabiiy material bilan ishlashda malakani takomillashtirishga tashabbus ko'rsatishga undaydi.

Shu maqsadda sinfda o'quvchilar yasagan buyum va o'yinchoqlar ko'rgazmasi tashkil etiladi. Bolani texnologiyaga yo'naltirishni to'laqonli rivojlantirish uchun ularni ota-onalar, ularga yaqin bo'lgan katta yoshdagilarning texnologiyai bilan tanishtirish, ularning texnologiyaini hurmat qilish hissini tarbiyalash, boshqalar uchun foydali ish bajarishni va shu texnologiya bilan quvonch bag'ishlashni (masalan, onaga, buviga 8-mart bilan tabriklash uchun sovg'a yasash, yosh bolalar uchun o'yinchoq yasash) o'rgatish, texnologiya faoliyatining tarbiyalash kerak.

Texnologiya jarayonida o'quvchi (jumladan, qo'l texnologiyaida) o'zini kattalardek his qiladi va bu tuyg'u, ya'ni kattalardek texnologiya qilayotganligi quvonch bag'ishlaydi va texnologiyaga qiziqishni, muhabbatni uyg'otadi.

O'qituvchi o'yinchoq ustida ish jarayonini tashkil qilishda belgilangan printsiplarga rioya qiladi, shu bilan birga, barcha bolalar uchun zarur bo'lgan asboblarni va materiallarni ta'minlanganligini, texnika xavfsizligiga rioya qilinayotganligini nazorat qiladi. Bu tabiiy boyliklardan sanoatda, qurilishda, turmushda foydalanish bilan bir qatorda texnologiya darslarida ham xom-ashyo sifatida foydalanish mumkin.

Texnologiya darslarida:

- o'simlik gullarining yaproqlari, barglari, ildizlari, tanasi, shoxlaridan;
- meva, sabzavot va poliz ekinlarning urug'laridan;
- kushlarni patlari, paxta chanog'i, baliq tangalari va qiltanoqlaridan;
- boshqali ekin samonidan;
- qum, tuproq, shag'al va boshqa turli tabiiy materiallardan foydalanish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Bu texnologiya ta'limi darslarida turli topshiriqlarini bajarish jarayonidagi materiallarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

O'quvchilarning tabiiy materiallardan o'yinchoq yasash jarayoni boshqa ish faoliyatlarida ham bajarilsa, bolalar ko'proq muvoffaqiyatlarga erishish mumkin. Masalan, tabiiy materiallardan loy yoki plastelin bilan ishlash jarayonida foydalanish mumkin: turli urug'lar, yong'oq po'choqlari, cho'chqayong'oq va x.k.

O'quvchilar qovoq urug'lari, quritilgan barglardan applikatsiyalar qilishni yaxshi xo'sh ko'rishadi. Bunday mashg'ulotlarda bolalar ular uchun yangilik bo'lgan usul, applikatsiya yopishtirishni, ya'ni yelimni detalga emas, detal yopishtiriladigan joyga suriladi va ustidan detal qo'yiladi. Ishtiyoq bilan bolalar turli ranglarga bo'lgan urug'larni terib chiroyli naqshlar hosil qilishi mumkin. Bunday mashg'ulotlar qo'l barmoqlarining mayda mushaklarini, ijodiy topqirlikni rivojlantirishga yordam beradi.

O'ylangan o'yinchoqni yasash oldidan katta tayyorgarlik ishlari olib boriladi. Buyum yaratish oldidan bolalarni tabiat qo'yniga ekskursiyaga (o'rmonga, hiyobonga, botanika bog'iga, daryo bo'yilariga) olib boriladi.

O'rmon bizning do'stimiz, u qorlarning erishishni sekinlashtiradi, daryo bo'yidagi odamlarning uylarini suv boshidan saqlaydi, o'rmon iqlimni yumishatadi va dalalarimizdagi namlikni saqlaydi. Halqimiz o'rmonlarni himoya qiladi va kesilgan joylarni tiklaydi.

Ekskursiya vaqtida o'qituvchi o'quvchilarga o'yinchoq tayyorlashda qurigan yoki kesilgan daraxtlardan foydalanish kerak ekanligini eslatishi kerak.

Pedagog ushbu tabiiy materiallardan 1-2 ta oddiy o'yinchoq (masalan, ignachi, baliqcha) yasab ko'rsatish kerak. Ekskursiyaga turli barglarni, urug'larni terish uchun qutichalarni olish mumkin. Turli o'yinchoqlar uchun shoxchalar teriladi.

Terilgan shoxchalar, qurigan ildizlar, cho'chqayong'oqlar ajoyib shakllarga ega. Pedagog quyidagi savollarga javob berishni taklif qiladi: "Nimaga o'xshaydi?", "Nimani eslatadi?", bolalarni taqqoslashga, o'xshatishga ertak qaxramonlarini eslashga, diqqat bilan nazar tashlashga, qanday materiallardan nima yasash mumkinligini oldindan o'ylab ko'rishga (odamchalar, hayvonlar, qushlar, baliqlar ishtirokida qanday kompazitsiya yaratish mumkin), qanday saxna ko'rinishini yartish mumkin (masalan, uch cho'chqa bolasi, tulki, xo'roz, bo'ri va quyon) ligini o'ylashga undaydi. SHu tariqa material yig'ishni tashkillashtirish bolalarga uning rangi va hidini his qilish imkonini beradi. Ekskursiyadan so'ng suhbat o'tkazish mumkin. Masalan, sayrda bolalar chumoli uyasini topib olishdi; o'qituvchi chumolining keltiradigan foydasi haqida gapirib beradi. Chumolini diqqat bilan kuzatib uning ixcham va tezkor harakatiga guvoh bo'lishadi. Suhbat davomida yana qanday xashoratlarni bilishi, ularning shakli haqida gapirishi mumkin.

Bolalar cho'chqayong'oqlar, kashtanlarning qaerda o'sishini bilib olishgach, rejalashtirilgan o'yinchoqlarning detallarini qaysi mevalardan qilish mumkinligini ko'ra olgach vazifani bajarishga kirishish mumkin.

Bunda turli buyumlarni yasashga intilmasdan, aksincha bir o'yinchoqni turli materialdan yasashni o'quvchilarga o'rgatish kerak, bir-biriga birlashtirish uchun

ishlatiladigan plastilinni rangini cho'chqayong'oq yoki kashtan rangiga mos qilib olish kerak.

Ekskursiya davomida ular o'yinchoq yasashadi, material yig'ar ekan, bulajak buyumlar obrazlarini ko'ra oladilar. O'qituvchi bolalarga material yig'ish talablarini eslatib turadi. Shu maqsadda "Material yig'ish" o'yini tashkilashtiriladi. Bolalar bilan birgalikda qabul qilish, saralash punktining joyi belgilanadi, o'rmon (park) bo'yicha navbatchini saylashda, u tabiatni qo'riqlashga javob beradi, undan tashqari terilayotgan material sifatini nazorat qiluvchini ham saylashadi va x.k.

Ekskursiyani tabiat boyligi va go'zaligi, mamlakatimizda uni qo'riqlash mavzularidagi suhbatlar bilan yakunlash mumkin. Natijada o'qituvchi sinfda, terilgan materialdan hoxlagan buyumni, o'yinchoqni, oldin yasagan va yangilarini yasashi mumkinligini e'lon qiladi.

Ekskursiya bo'yicha o'qituvchi o'quvchilar bilan suhbat qilib, ularning fikrini, ko'rganlari bo'yicha tasurotlarini bilib oladi. Endi tabiiy materialdan o'yinchoqlar yasashga o'tish mumkin.

O'yinchoq ustida ishlash bolalarda yo'naltiruvchi tadqiqot faoliyatini rivojlantiradi. SHuning uchun, muhimi, o'qituvchi o'yinchoq yasash jarayonida hammasini o'zi tushuntirib bermasligi kerak. Bolalar oldiga o'zlarining mustaqil fikrlab oxiriga yetishga, harakatlarini tahlil qilishga, oxirigacha o'zi yasashiga zarurati qo'yilsa, yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Shunday qilib, tabiiy materialdan buyum yasash ishi tarbiyachi oldindan yasab qo'ygan namuna bo'yicha o'yinchoqni yasash usulini o'zlashtirishdan boshlanadi. Predmetni ko'rib, bolalar qiynchiliksiz buyum tuzilmasini tahlil qiladi, qismlarining (ulat) biriktirish yo'lini aniqlaydi, keyingi ishning rejasini va bajarilishini o'ylab chiqishadi.

Bunday qobiliyatga ega bo'lish uchun o'qituvchi bolalarga namunaga tayangan holda bir nechta o'yinchoq yasashni taklif etadi.

Bunda pedagog har bir harakatni aniq bo'lishini va bu harakatini hamma ko'ra olishini ta'minlashi kerak. Agar bundan keyin bolalar ishga kirishiga

qiynalsa, o'qituvchi yana qaytadan o'yinchoq yasash jarayonining ketma-ketligini tushuntirib beradi.

Namuna bo'yicha o'yinchoqni yasash usulini muvaffaqiyatli o'zlashtirganidan so'ng rasm buyicha yasashga o'tish mumkin. Bu yerda o'yinchoqning sxematik chizmalardan foydalanish usuli bolalarga katta yordam berishi mumkin, bu esa kurgazmali fikrlashdan aniq obrazli – fikrlashga o'tishni yengillashtiradi. Ushbu usulning samaraliligiga A. R. Luriya e'tibor bergan. U, modelli namunada konturdan boshqa hech narsa ko'rinmaydi, bu esa bolani mustaqil ijodiy faoliyatga va ijodiy fikrlashga undashini ta'kidlagan edi.

Modellar chizmasini qo'llash yo'li bilan ish yuritishni qo'yidagicha tashkillashtirish mumkin. Barcha o'yinchoqlarning tarkibiy qismlari o'zlarida o'zgargan geometrik shakllarni ifodalaydi, ularni bolalar oson chiza oladi. Birinchi shunday mashg'ulotlarda, namuna tahlilidan so'ng, tarbiyachi bolalarga yasaladigan o'yinchoqning modelini qanday qilib chizishni tomosha qilishga taklif qiladi, so'ngra esa ular, tarbiyachi ko'rsatgandek, qog'ozda ish bu chizmani o'zlari chizib ko'rishadi. Keyinchalik o'yinchoq modeli rasmdan foydalanishning boshlang'ich bosqichida tarbiyachi bolalarga uni to'g'ri bajarishga yordam berishi kerak, oqibatda bolalar mustaqil ravishda bunday chizmalarni bajara oladi.

Bunday metodni qo'llash bolalarga bajariladigan ishning umumiy ko'rinishini tasavvur qilish, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga yordam berdi.

O'yinchoqlarning chizmalarini tayyorlash bo'yicha taklif etilgan tartibini qo'llashga tarbiyachi tomonidan o'zgartirishlar kiritish mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarni qiziqtirish uchun, namunani tahlil qilish jarayonida qulay usullarni topishi mumkin (predmet haqida topishmoq aytish va x.k.).

Namuna bo'yicha tabiiy materialdan buyumlarni tayyorlash yuzasidan ish tahlilini umumlashtirib, ish tartibining o'ziga xos umumiy sxemasini belgilash mumkin:

1. O'yinchoq namunasi ko'zdan kechirish va tahlil qilish;
2. Uni bosqichma-bosqich tayyorlash tartibi belgilash va ishni rejalashtirish;

3. O'yinchoq qismlari biriktirish usulini tanlash;
4. Material va asboblarni tanlash (o'qituvchi yordamida yoki mustaqil);
5. O'yinchoqni tayyorlash;
6. o'quvchilar yasagan o'yinchog'ini tahlil qilish va baholash.

O'quvchilarning o'z hayolidagi o'yinchoqni tabiiy materialdan yasashi katta tarbiyaviy va ta'limiy ahamiyatga ega. Bunday mashg'ulotlar bolalarda faoliyatni mustaqil rejalashtirish qobiliyatini shakllantiradi. Bola ish boshlashda oldin o'z harakatlarini belgilab, ketma-ketligini aniqlab olishi kerak (oldin nimani bajarish kerak, o'yinchoqda tana va boshni qanday biriktirish kerak).

Ko'pincha bu ish bolalarning katta guruhdagiligida qo'lidan kela boshlaydi, bog'cha davrining oxirigi kunlarida ular o'z fikri, shart bo'yicha vazifalarni muvaffaqiyatli bajaradilar.

Tabiiy material bilan ishlashni kunning ikkinchi yarmida sinf xonasida yoki texnologiya burchagida (yaxshi yoritilgan) yarim guruh (6-7 bola) yoki hammasi bilan (ishning turi va bosqichiga qarab) haftada bir marta tashkil etish mumkin.

Biz tarafdin tasvirlangan birinchi o'yinchoqlar – ignachi, baliqcha, tulik, idishlar – tuzilishi va yasalishi bo'yicha sodda, shuning uchun ularni yasashda guruhning hammasi qatnashishi mumkin.

O'yinchoq yasashning yangi usuli bilan tanishishda bolalarni kichik guruhlarga bo'lish kerak. Bunda, birinchi mashg'ulotlarda, ham ularning o'z hayolidagilarni imkoniyatlari bilan mos kelmaganda, amaliy malakasi yetilmagan vaqtda hayolidagi o'yinchoqni yasash darsini o'tmay turish kerak. Kichik guruhlarda ishni tashkil qilishda o'qituvchiga o'quvchilarni nazorat qilish, har biriga alohida individual yordam berish qulay bo'ladi.

O'qituvchi kichik guruhlarni bolalarning xoxishi va malakasiga qarab belgilaydi. O'qituvchi bolalarning yutuqlarini va muvoffaqiyatsiz-liklarini alohida daftarga yozib boradi va o'z ishida bulardan foydalanadi.

O'yinchoq qanday yaratiladi, qanday ishlar bajariladi?

Eng oddiy va oson usul – bu plastilin bilan o'yinchoq qismlarini bir-biriga biriktirishdir. Masalan, o'yinchoq tulkinging boshini tanasiga ulash uchun diametri 2 sm bo'lgan plastilinli sharchadan foydalaniladi, pasidan markazga g'udda (shishka) – tana, tepasidan bosh ozroq bosib yopishtiriladi. Ulanish mustaxkam bo'lishi uchun bir tekisda ko'rsatkich barmoq bilan yuqoriga va pastga plastilinni yoyib va silliq lab chiqadi. Plastilindan o'yinchoq qismlarini biriktirish uchun foydalanishni, bolalarda ham tabiiy material bilan ishlash malakasi bo'lmaganda, amalga oshirishi mumkin.

Murakkabroq ammo mustaxkamroq usul yelimlashda. Buning uchun yelim bilan yopishtiriladigan joy yelimlanadi va birlashtirib 8-10 soniya ushlab turiladi, so'ngra to'liq qurishi uchun taglikka qo'yiladi. Yelimlangan qismlar qurib bo'lgancha bola qolgan detallarni tayyorlaydi.

O'yinchoqning qismlarini biriktirish uchun shoxchalar, gugurt donasi, tayoqchalardan foydalanish mumkin, buning uchun buguz kerak bo'ladi. SHoxcha yordamida o'yinchoq eshakchaning boshini gavdasiga ulash uchun avval cho'chqayong'oq – boshda va cho'chqayong'oq tanada buguz yordamida teshik qilinadi. Buning uchun cho'chqayong'oqni taglikka qo'yib chap qo'l bilan uning ikkiyonidan maxkam ushlanadi. O'ng qo'lga asbob va buguz olib cho'chqayong'oq markaziga qo'yib (yumshoq joyiga) asta-sekin bosiladi, bir vaqtning o'zida qo'l bilan tebranuvchi harakat qilib borish kerak. Bu yerda eng muhim buguzni teshilayotgan joydan toyib ketgizmaslikni o'rganib olishdir. Buning uchun esa bu asbob bilan ishlash malakasiga ega bo'lish kerak. SHuning uchun buguz bilan ishlashni o'rganish maqsadida yumshoq mevalardan (namatak, yangi lolaqizg'oldoq va boshqalar) foydalanish kerak. Teshiklar tayyor bo'lgach shoxcha (tayoqcha) ni bir tarafi tiqiladi o'rtasi esa ikki cho'chqayong'oq orasida ochiq qoldiriladi, shu tariqa bo'yin hosil bo'ladi. Ulanish mustaxkamroq bo'lish uchun tayoqchani bir tarafi tiqiladi o'rtasi esa ikki cho'chqayong'oq orasida ochiq qoldiriladi, shu tariqa bo'yin hosil bo'ladi. Ulanish mustaxkamroq bo'lishi uchun tayoqchani uchlari yelim bilan surtiladi va cho'chqayong'oqdagi teshikcha

tiqiladi. Yuqorida aytilgan detallarni ulash usullarini ko'pgina o'yinchoqlarni tayyorlashda qo'llash mumkin.

O'simlik materiali bilan ishlash

Maqsad. Bolalarga turli tabiiy materialdan o'yinchoq yasashni o'rgatish; ishda chaqonlikni va tartiblikni shakllantirish, bolalarda taavvurlikni rivojlantirish.

Material: Bir quti yangi ko'knori (lolaqizg'aldoq), to'g'ri va qayrilgan shoxchalar cho'chqayong'oqning to'g'ri qopqoqsimon qobig'i, yelim yoki plastilin.

Ishga tayyorgarlik. Tarbiyachi pichoq bilan shoxchalarning uchlarini yo'nib uchkirlaydi (qayilganlari choynakning dastagi, to'g'rilash tumshug'i uchun), ularning choynak qismiga maxkamlash oson bo'lishi uchun.

Ish jarayoni. Tarbiyachi bolalar bilan bo'ladigan suhbatning boshida o'yinchoqlar tayyorlashda qanday materiallar ishlatganliklarning esalshda, so'ngra, bu safar o'yinchoq. Yasash uchun boshqa tabiiy materialdan foydalanishlarini ma'lum qiladi; tayyor idishni ko'rsatib, qaysi materialdan va qanday yasalganini aytadi: choynak ko'knori (lolaqizg'aldoq) boshidan qilingan bo'lib, unda bukilgan (qayrilgan) va to'g'ri cho'pakdan (shoxchadan) tayyorlangan. Bukilgan shoxcha ko'knori boshchasiga dastak sifatida maxkamlanadi. To'g'ri shoxchaning o'rta qismining pastrog'idan kichik teshik ochilib, unga yelim yoki plastilin surkaladi va u yerga to'g'ri shoxcha maxkamlanadi, bu choynakning tumshug'i bo'ladi.

Ish jarayonining ketma-ketligi tahlil qilingach, bolalar ishga kirishadilar. Ayrim mashg'ulotlarda bolalar ko'zi oldida namuna yaratish shart emas, yasalgan o'yinchoqning tahlil bilan cheklanish mumkin. Bolalar qiynalsa yuqorida qo'llanilgan usuldan foydalanish mumkin. Asosiy diqqatni tarbiyachi detallarni orastalik bilan ulanishiga qaratish kerak.

Tayyor choynakni rangli buyoq bilan buyash, naqshlar bilan bezash (bolalar xoxishiga qarab) mumkin. Oynak atrofiga cho'chqayong'oqning qopqoqsimon qobig'i qo'yiladi – bu tayyor piyolalardir.

Kapalak.

Maqsad. Kapalak o'yinchog'ini yasashni ularning qismlarini bir-biriga muvofiqlashtirishni bolalarga o'rgatish; bolalar tasavvurini, yairoyli o'yinchoqni yasash xoxishini rivojlantirish.

Material: cho'chqayong'oq (katta bo'lmagan, oval shaklda), daraxt barglari, namatak mevalari, shoxchalar yoki sim, plastilin yoki yelim.

Ish jarayoni. Kapalakning barcha detallari ma'lum bir tabiiy materialdandir: Gavda (tana) uchun cho'chqayong'oqdan (qopqoqsimon qobig'idan ajratilgan holda), kapalak qanotlari uchun (pastki qanotlar uchun) kichik va (yuqori qanotlar uchun) katta barglar (har qanday daraxtning) olinadi, bu turli barglar kapalakning turli shakl va rangda yasalishiga imkon beradi, lekin cho'chqayong'oq (gavda) va qanotlar (barglar) mutanosibligini saqlash kerak.

Tabiiy materiallarni to'playotgan har bir o'quvchi ularni tartibli yig'ish va tayyorlash tartibini bilish, barglarni to'plash jarayonida daraxtlar, butalar, o'simliklar shoxini qo'pollik qilib sindirish, gul va shu kabilarni o'ylamasdan o'zini ona tabiatiga zarar yetkazishlarini anglashlari lozim.

Har bir tabiiy material turlicha ishlov berish, har xil asboblardan foydalanishni talab qiladi va ularni ishlatish ma'lum bilim ko'nikma va malaka talib qiladi.

Tabiiy materiallar to'plash o'qituvchi qo'ygan maqsadga bog'liq bo'ladi. O'quvchilar ko'rib chiqilgan va batafsil muhokama qilingan yoki o'zlari tanlagan manzara uchun material to'playdilar va aksincha avval qandaydir materialni to'plab, keyin mavjud materiallar asosida ishni bajarishni aniqlashlari mumkin.

2.2. Boshlang'ich sinf texnologiya ta'limi darslarida tabiiy materiallardan buyumlar tayyorlashni o'rgatishda axborot texnologiyasidan foydalanish

Tabiiy materiallarni o'quvchilar dastlab o'qituvchi rahbarligida sayr vaqtida to'playdilar. Sayr vaqtida o'qituvchi har bir tabiiy material haqida kerakli tushunchalar va ularni yig'ish, qanday saqlash borasida zarur bo'lgan ko'rsatmalar beradi. Mazkur ishlarning o'z vaqtida bajarilishi, tabiiy materiallardan foydalanish

mashg'ulotlarining samarali o'tishda katta ahamiyatga egadir. Bu o'z navbatida o'qituvchi va o'quvchilardan katta mas'uliyat va e'tibor talab qiladigan jarayondir. Mashg'ulot uchun kerak bo'ladigan tabiiy materiallar qanchalik ko'p to'plansa, o'quvchilar tomonidan bajariladigan topshiriqlarning mazmuni ham shunchalik turli-tuman bo'ladi. Tabiiy materiallarni to'plash jarayonida o'quvchilarni atrofdagi o'simliklar dunyosi, hashorat bilan tanishadilar, daraxt, gul navlarini, nomlarini, shakllarini bilib oladilar. Tabiatni qo'riqlash, unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, uni asrab-avaylash masalalariga alohida e'tibor berishga o'rganadilar.

Tabiiy materiallar bilan ishlash o'quvchilarni tasavvurini, ijodiy qobiliyatini o'stirish bilan birga, u yoki bu tabiiy shakllar asosida biriktirish orqali o'ziga xos bo'lgan qiziqarli o'yinchoqlar va shu kabilarni yasay olish malakasini ham rivojlantiradi.

Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar turli bo'laklarni o'zaro biriktirish, ulash, qo'zg'aluvchan yoki qo'zg'almas qilib o'rnatish, qumqog'oz, egov, pichoq va shu kabilar bilan ishlov berish usullarini ham bekamu-ko'st o'zlashtirib olishlari kerak. Ayrim hollarda tabiiy materiallardan yasaladigan shakllar, o'yinchoqlarning ifodaliligini, ta'sirchanligini oshirishda materiallar ham ishlatiladi. O'qituvchi o'quvchilarga kerakli tushunchalar berishda masalaning ana shu jihatiga ham e'tibor berish lozim. Tabiiy materiallarning haqiqiy shakllaridan kerakli o'rinlarda foydalanish mumkin. Bunda bolalar tabiiy materiallardan ifodalangan biron-bir obrazning o'xshashlik tomonlarini yanada bo'rttirib, qo'shimcha ishlov berish orqali haqiqiysiga yaqinlashtirish hamda bunda asbob-uskunalaridan foydalanishni o'rganadilar. Somondan applikatsiyalar yasash.

Poxol-somondan qadimdan odamlar foydalanib kelishgan. Ulardan turli foydali buyumlar: bosh va oyoq kiyimlari, sumkalar, qoplar, idishlar, o'yinchoqlar, bezaklar, devorlar va boshqa narsalarni yasashda foydalanib kelishgan. Hozirgi

kunda esa sanoatda to'qish va dekoratsiya, applikatsiya ishlarida va shu kabilarga bezak berishda foydalaniladi.

Samon – boshhoqli ekinlarning poyasi bo'lib, ishlov berish oson bo'lgan materialdir. Samondan yasalgan narsalarmjuda chiroyli va nafisdir. Samon bilan ishlash o'quvchilar badiiy didini rivojlantirishga yordam beradi.

Bu maqsadda bug'doy, arpa, javdar somonlari ishlatiladi. Samon boshhoqli ekinlarni yig'ib-terib olingandan so'ng ajratib olinadi. Bunda samon och sariq rangda bo'ladi. Agarda bu o'simliklarning poyasi yaxshilab ko'rib chiqilsa, poyaning o'zaro bo'g'implari bilan birikkanligini, eng yuqoridagi qismi ingichkaroq, uzunroqligini ko'rish mumkin. Samon qalamchalarini olish uchun poyaning o'rta va pastki qismi qaychi yoki biror o'tkir tig'li buyum yordamida bo'g'implardan qirqib, qisimlarga ajratiladi. Qirqilgan poya qisimlari ko'rinishi va uzunligiga ko'ra navlarga ajratiladi: eng uzuni 1nav, kaltarog'i 2 nav, eng qisqasi 3 nav.

Maydalangan samondan foydalanib bo'lmaydi, chunki u singan va o'z shaklini yoqotgan bo'ladi. SHuning uchun samonni qo'lda terib olish kerak.

Samonni ishlatishdan oldin qalamchalar bog'lami tog'oraga solinib, ustidan qaynoq suv quyiladi va tog'arada bir sutka saqlanadi. Samon yumshab maydalangandan so'ng uni tog'oradan olib, suvi silkitib tushiriladi va har birini uzunasiga o'rtasidan bo'linadi.

Samonni qirgqanda pastdan yuqoriga qarab qirqiladi. So'ngra samonning qirqilgan tamonini pastga qilib qo'yib, iliq qilib dazmollanadi. Dazmolning qiziganlik va dazmollash vaqtiga ko'ra samonni turli rangga kiritish mumkin. Masalan och sariq, sariq, och jigar rang, jigar rang. Tayyor samon qalamchalarini turli rangga bo'yash mumkin bu tasvirning chiroyli chiqishiga yordam beradi. Dazmollangan samon extiyotlik bilan kutichaga solib ko'yiladi. Samon qalamchalarini yelimlash bajariladigan ishning asosiy bosqichidir. Samon qalamchalarini yelimlashda PVA yelimlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir, sababi samon

qalamchalarining elastilik holatini yo'qotmaydi, boshqa yelimlardan foydalanib bo'lmaydi, chunki vaqt o'tgan sayin qurib, sarg'ayib, ko'porilib ketadi va tayyorlangan ishning sifati buziladi.

Ishni boshlashdan oldin applikatsiya tasvirni chizib olish kerak. CHizilgan tasvir qog'ozning ikkinchi tomonidan ham ko'rinib turish kerak. CHunki samon qalamchalari yopishtirib bo'lingandan so'ng tasvir shakli qirqib olinadi. Tasvirni turli ko'rinishlardan xayvonlar, kushlar, odamlar, mevalar, binolar, buyumlarning tasvirlaridan va turli manzaralardan foydalanish mumkin. Tasvirni ko'rinishiga qarab bir qancha qisimlarga ajratib olish mumkin. Tasvirni bir qismiga yelim suriladi va samon qalamchalari bir hil yo'nalishda yopishtiriladi va qolgan qisimlariga ham yelim yupqa qilib surtilib, samon qalamchalari turli yo'nalishlarda yopishtiriladi. Shunda tasvir aniq ko'rinishga ega bo'ladi. Yelimlangan samon qalamchalari tasvirni chetki chiziqlaridan chiqib turishi kerak. Yelimlash ishlari tugagandan so'ng qog'ozni orqasiga o'girib, qaychi yordamida qog'ozdagi tasvirni va samon qalamchalarini ortiqcha qismini qirqib olamiz. Tasvirni qirqib olishda aniq, to'g'ri va sifatli qirqishni amalga oshirish kerak. Tasvirni asosi uchun to'q rangdagi fon olinadi. Chunki samondan tayyorlangan tasvir aniq va ravshan ko'rinishi uchun qora va boshqa to'q rangdagi barxatli qog'ozdan foydalaniladi. Yanada ish sifatli chiqishi uchun matoga, ramkalardan yoki faner qatlamlaridan foydalanish mumkin.

Samondan narsalar yoki qo'g'irchoq to'qish ishlarini bajarish uchun samon bog'ini tog'oraga solib 2-3 kun mobaynida issiq suvga solib ivitib qo'yish kerak. Ivigan samon poyasini tog'oradan namligida olib, suvdan tozalab olinadi va u yumshoqlik vaqtida to'rtta samon poyasidan iborat lenta to'qiladi yoki samon poyalari bog' qilib bog'lanadi. To'qilgan samon lentalaridan: shlyapalar, sumkalar, devorlar, uyning tom qisimlari va shu kabilar to'qiladi.

Bog'langan samon poyalarini ip yordamida bog'lab bosh qismi ajratib olinadi va qolgan qisimlari o'rilgan samon poyasidan yoki samon bog'idan bog'lanib tana qismiga ulanadi. Tayyorlangan shakllarga ko'shimcha ishlov berib,

bolalar uchun turli ko'rinishdagi o'yinchoqlar, buyumlar, xayvon shakllarini yasash mumkin. Boshlang'ich sinflarda turli tabiiy materiallardan applikatsiyalar yasash mumkin. Turli meva va sabzavot, poliz ekinlarining urug'lari, danak va danak po'chrlari yordamida xilma-xil applikatsiya ishlarini bajarish mumkin. Ayni bir ishda xilma-xil meva urug'laridan va boshqa tabiiy materiallardan foydalanish mumkin.

SABZAVOT VA MEVALARNING URUG'IDAN APPLIKATSIYA USULIDA YO'LSIMON NAQSH TUZISH

1	Darsning maqsadi	1. Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga meva urug'lari, applikatsiya usuli, naqsh turlari haqidagi bilim va tushunchalar hosil qilish. Meva urug'laridan applikatsiya usulida yo'lsimon naqsh tuzishga o'rgatish. 2. Tarbiyaviy maqsad: Tabiatga mehr uyg'otish, keraksiz narsalardan biror narsa yasashga ishtiyoq o'yg'otish, o'z texnologiyaidan qoniqish va zavqlanishga o'rgatish. 3. Rivojlantiruvchi maqsad. Urug'lardan foydalanib applikatsiya usuli orqali yo'lsimon naqsh yasay olish malakalarini rivojlantirish.
2	Darsning jihozlari	1. Ko'rgazmali vositalar: Turli meva urug'lari namunalar, applikatsiya ish turlaridan namunalar, naqsh turlari. 2. Ko'rgazmali jihozlar: Qovun va tarvuz urug'lari, qog'oz, qaychi, qalam, chizg'ich, elim, latta.
3.	Dars jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	1. Uslub: Og'zaki bayon qilish, tushuntirish, tahlil qilish, aqliy hujum 2. Shakl: Amaliy mashg'ulot, savol-javob, test 3. Baholash: Rag'batlantirish, 5 ballik tizimda baholash
4	Dars jarayonini amalga oshirish bosqichlari	1. Tashkiliy qism: 10 daqiqa a) Darsga hozirlik ko'rish. 3 daqiqa b) Uyga vazifani mustahkamlash 7 daqiqa 2. Asosiy qism: 25 daqiqa Aqliy hujum 5 daqiqa Mavzuni bayon qilish 5 daqiqa Amaliy ish 15 daqiqa

		3.Yakuniy qism: 10 daqiqa O'quvchilar bilimini baholash Uyga vazifa berish
--	--	---

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism:

- A. Salomlashish
- B. Davomatni aniqlash
- V. Uy vazifasini tekshirish (sabzavot va meva urug'larini tayyorlab kelish)
- D. Ish joyini tayyorlash (kerakli ish qurollari va materiallari bilan ta'minlash)

2.Asosiy qism

Aqliy hujum

O'qituvchi darsning boshlanishida o'quvchilarni meva urug'laridan applikasiya usulida yo'lsimon naqshlar tuzish haqidagi bilim va tasavvurlarini aniqlaydi.

- a) Qanday meva urug'larini bilasiz?
- b) Meva urug'laridan foydalansa bo'ladimi?
- v) Naqshlarning turlarini bilasizmi?
- g) Siz naqshlar yasab ko'rganmisiz?

Yangi mavzu bayoni.

Bolalar o'lkamizga oltin kuz fasli kirib keldi. Bilamizki, kuz faslida sabzavot, mevalar, poliz ekinlari pishadi.

Turli meva va sabzavot, poliz ekinlarining urug'lari tabiatda keng tarqalgan, ularni to'plash va saqlash oson bo'lgan material hisoblanadi. Urug'laridan xilma-xil applikasiya ishlarini bajarish mumkin. Ayni bitta applikasiya ishida turli xil urug'lardan foydalanish mumkin.

Bilasizmi, bolalar bugun mashg'ulotimizda sizlar bilan ana shu sabzavotva meva urug'laridan yo'lsimon naqsh tuzishni o'rganamiz.

Naqshlar milliy amaliy sa'nat turlaridan biridir. Naqshlarni biz hamma joyda qadimiy obidalarda, eshik- romlarda, gilamlarda, so'zanalarda, idishlarda va boshqa joylarda uchratishimiz mumkin. Naqshlar tabiatdagi go'zallikni o'zida aks ettiradi:

O'qituvchi suraydi:

- Naqshni chizuvchi inson kim deb ataladi?
- Naqqosh deb ataladi.
- Naqshlarda nimalar tasvirlanadi?
- Gullar, geometrik shakllar, rasmlar.

So'ng o'qituvchi tayyorlab kelingan sabzavot urug'laridan qovun va tarvuz urug'larini olib tahlil qiladi.

Qovun urug'i: rangi och sariq, shakli cho'zinchoq, usti yupqa parda bilan qoplangan, sinadi, bukiladi, elimlanadi, suvni o'ziga sekin shimadi.

Tarvuz urug'i: rangi to'q jigar rang, shakli oval, usti yupqa parda bilan qoplangan, sinadi, bukiladi, elimlanadi, suvni o'ziga sekin singdiradi.

O'qituvchi sabzavot va meva urug'lari turli shakllarda va turli ranglarda bo'lishi, ular aslo bir-birini takrorlamasliklarini gapirib beradi.

Amaliy ish

Amaliy ishni boshlashdan oldin o'qituvchi o'quvchilar ish joyini tekshirib chiqadi. Kamchiliklar bo'lsa to'g'irlashni maslahat beradi. Keyin qovun va tarvuz urug'lardan yo'lsimon naqsh tuzish uchun naqshni qalam yordamida qog'ozga chizib oladi.

O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilar ishini kuzatib boradi. O'quvchilar yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarni ko'rsatib, maslahatlar beradi. Texnika xavfsizligi qoidalariga, sanitariya gigiena talablariga rioya qilishlari kerakligini eslatadi.

Ishni to'gatgandan so'ng o'quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida ularga test savollarini beradi.

1. Meva nomlari.....
 - a) olma, nok, qovun, uzum.
 - b) uzum, olma, nok, banan.
 - v) nok, olma, banan, piyoz.
2. Naqsh kim chizadi?
 - a) Rassom.
 - b) O'qituvchi
 - v) Naqqosh.

O'qituvchi tez va to'g'ri topgan o'quvchilarni rag'barlantiradi. Ish stolini tozalab, ish qurollarini joy-joyiga qo'yish kerakligini aytadi.

3. Yakuniy qism.

- 1.Dars oxirida tayyor bo'lgan ishlarni o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi.
- 2.Har bir o'quvchi qilgan ishlariga qarab izohli baholanadi.
- 3.Yo'lsimon naqshlarni boshqa urug'lardan yasash uyga vazifa qilib beriladi.

Tabiiy materiallarni o'quvchilar dastlab o'qituvchi rahbarligida sayr vaqtida to'playdilar. Sayr vaqtida o'qituvchi har bir tabiiy material haqida kerakli tushunchalar va ularni yig'ish, qanday saqlash borasida zarur bo'lgan ko'rsatmalar beradi. Mazkur ishlarning o'z vaqtida bajarilishi, tabiiy materiallardan foydalanish mashg'ulotlarining samarali o'tishda katta ahamiyatga egadir. Bu o'z navbatida o'qituvchi va o'quvchilardan katta mas'uliyat va e'tibor talab qiladigan jarayondir.

Mashg'ulot uchun kerak bo'ladigan tabiiy materiallar qanchalik ko'p to'plansa, o'quvchilar tomonidan bajariladigan topshiriqlarning mazmuni ham shunchalik turli-tuman bo'ladi. Tabiiy materiallarni to'plash jarayonida o'quvchilarni atrofdagi o'simliklar dunyosi, hashorat bilan tanishadilar, daraxt, gul navlarini, nomlarini, shakllarini bilib oladilar. Tabiatni qo'riqlash, unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, uni asrab-avaylash masalalariga alohida e'tibor berishga o'rganadilar.

Tabiiy materiallar bilan ishlash o'quvchilarni tasavvurini, ijodiy qobiliyatini o'stirish bilan birga, u yoki bu tabiiy shakllar asosida biriktirish orqali o'ziga xos bo'lgan qiziqarli o'yinchoqlar va shu kabilarni yasay olish malakasini ham rivojlantiradi.

Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar turli bo'laklarni o'zaro biriktirish, ulash, qo'zg'aluvchan yoki qo'zg'almas qilib o'rnatish, qumqog'oz, egov, pichoq va shu kabilar bilan ishlov berish usullarini ham bekamu-ko'st o'zlashtirib olishlari kerak. Ayrim hollarda tabiiy materiallardan yasaladigan shakllar, o'yinchoqlarning ifodaliligini, ta'sirchanligini oshirishda materiallar ham ishlatiladi. O'qituvchi o'quvchilarga kerakli tushunchalar berishda masalaning ana shu jihatiga ham e'tibor berish lozim. Tabiiy materiallarning haqiqiy shakllaridan kerakli o'rinlarda foydalanish mumkin. Bunda bolalar tabiiy materiallardan ifodalangan biron-bir obrazning o'xshashlik tomonlarini yanada bo'rttirib, qo'shimcha ishlov berish orqali haqiqiysiga yaqinlashtirish hamda bunda asbob-uskunalaridan foydalanishni o'rganadilar. Somondan applikatsiyalar:

Poxol-somondan qadimdan odamlar foydalanib kelishgan. Ulardan turli foydali buyumlar: bosh va oyoq kiyimlari, sumkalar, qoplar, idishlar, o'yinchoqlar, bezaklar, devorlar va boshqa narsalarni yasashda foydalanib kelishgan. Hozirgi kunda esa sanoatda to'qish va dekoratsiya, applikatsiya ishlarida va shu kabilarga bezak berishda foydalaniladi.

Samon – boshhoqli ekinlarning poyasi bo'lib, ishlov berish oson bo'lgan materialdir. Samondan yasalgan narsalarmjuda chiroyli va nafisdir. Samon bilan ishlash o'quvchilar badiiy didini rivojlantirishga yordam beradi.

Bu maqsadda bug'doy, arpa, javdar somonlari ishlatiladi. Samon boshhoqli ekinlarni yig'ib-terib olingandan so'ng ajratib olinadi. Bunda samon och sariq rangda bo'ladi. Agarda bu o'simliklarning poyasi yaxshilab ko'rib chiqilsa, poyaning o'zaro bo'g'implari bilan birikkanligini, eng yuqoridagi qismi ingichkaroq, uzunroqligini ko'rish mumkin. Samon qalamchalarini olish uchun poyaning o'rta va pastki qismi qaychi yoki biror o'tkir tig'li buyum yordamida bo'g'implardan qirqib, qisimlarga ajratiladi. Qirqilgan poya qisimlari ko'rinishi va uzunligiga ko'ra navlarga ajratiladi: eng uzuni 1nav, kaltarog'i 2 nav, eng qisqasi 3 nav.

Maydalangan samondan foydalanib bo'lmaydi, chunki u singan va o'z shaklini yoqotgan bo'ladi. SHuning uchun samonni qo'lda terib olish kerak.

Samonni ishlatishdan oldin qalamchalar bog'lami tog'oraga solinib, ustidan qaynoq suv quyiladi va tog'arada bir sutka saqlanadi. Samon yumshab maydalangandan so'ng uni tog'oradan olib, suvi silkitib tushiriladi va har birini uzunasiga o'rtasidan bo'linadi.

Samonni qirgqanda pastdan yuqoriga qarab qirqiladi. So'ngra samonning qirqilgan tamonini pastga qilib qo'yib, iliq qilib dazmollanadi. Dazmolning qiziganlik va dazmollash vaqtiga ko'ra samonni turli rangga kiritish mumkin. Masalan och sariq, sariq, och jigar rang, jigar rang. Tayyor samon qalamchalarini turli rangga bo'yash mumkin bu tasvirning chiroyli chiqishiga yordam beradi. Dazmollangan samon extiyotlik bilan kutichaga solib ko'yiladi. Samon qalamchalarini yelimlash bajariladigan ishning asosiy bosqichidir. Samon qalamchalarini yelimlashda PVA yelimlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir, sababi samon

qalamchalarining elastilik holatini yo'qotmaydi, boshqa yelimlardan foydalanib bo'lmaydi, chunki vaqt o'tgan sayin qurib, sarg'ayib, ko'porilib ketadi va tayyorlangan ishning sifati buziladi.

Ishni boshlashdan oldin applikatsiya tasvirni chizib olish kerak. CHizilgan tasvir qog'ozning ikkinchi tomonidan ham ko'rinib turish kerak. CHunki samon qalamchalari yopishtirib bo'lingandan so'ng tasvir shakli qirqib olinadi. Tasvirni turli ko'rinishlardan xayvonlar, kushlar, odamlar, mevalar, binolar, buyumlarning tasvirlaridan va turli manzaralardan foydalanish mumkin. Tasvirni ko'rinishiga qarab bir qancha qisimlarga ajratib olish mumkin. Tasvirni bir qismiga yelim suriladi va samon qalamchalari bir hil yo'nalishda yopishtiriladi va qolgan qisimlariga ham yelim yupqa qilib surtilib, samon qalamchalari turli yo'nalishlarda yopishtiriladi. SHunda tasvir aniq ko'rinishga ega bo'ladi. Yelimlangan samon qalamchalari tasvirni chetki chiziqlaridan chiqib turishi kerak. Yelimlash ishlari tugagandan so'ng qog'ozni orqasiga o'girib, qaychi yordamida qog'ozdagi tasvirni va samon qalamchalarini ortiqcha qismini qirqib olamiz. Tasvirni qirqib olishda aniq, to'g'ri va sifatli qirqishni amalga oshirish kerak. Tasvirni asosi uchun to'q rangdagi fon olinadi. Chnki samondan tayyorlangan tasvir aniq va ravshan ko'rinishi uchun qora va boshqa to'q rangdagi barxatli qog'ozdan foydalaniladi. Yanada ish sifatli chiqishi uchun matoga, ramkalardan yoki faner qatlamlaridan foydalanish mumkin.

Samondan narsalar yoki qo'g'irchoq to'qish ishlarini bajarish uchun samon bog'ini tog'oraga solib 2-3 kun mobaynida issiq suvga solib ivitib qo'yish kerak. Ivigan samon poyasini tog'oradan namligida olib, suvdan tozalab olinadi va u yumshoqlik vaqtida to'rtta samon poyasidan iborat lenta to'qiladi yoki samon poyalari bog' qilib bog'lanadi. To'qilgan samon lentalaridan: shlyapalar, sumkalar, devorlar, uyning tom qisimlari va shu kabilar to'qiladi.

Bog'langan samon poyalarini ip yordamida bog'lab bosh qismi ajratib olinadi va qolgan qisimlari o'rilgan samon poyasidan yoki samon bog'idan bog'lanib tana qismiga ulanadi. Tayyorlangan shakllarga ko'shimcha ishlov berib,

bolalar uchun turli ko'rinishdagi o'yinchoqlar, buyumlar, xayvon shakllarini yasash mumkin.

Boshlang'ich sinflarda turli tabiiy materiallardan applikatsiyalar yasash mumkin. Turli meva va sabzavot, poliz ekinlarining urug'lari, danak va danak po'chrlari yordamida xilma-xil applikatsiya ishlarini bajarish mumkin. Ayni bir ishda xilma-xil meva urug'laridan va boshqa tabiiy materiallardan foydalanish mumkin.

Yong'oq, yeryong'oq, eman, kashtan, chinor, archa mevasi, meva va poliz ekinlarining urug'lari tabiatda keng tarqalgan, toplash va saqlash oson bo'lgan material hisoblanadi. Ulardan turli narsalarni shaklini yasashimiz mumkin. Yeryong'oqning g'ar bir donasi turli shakllarda bo'ladi, agar yeryong'oqni diqqat bilan kuzatib faraz qilinsa u yoki bu obraz (eryong'oq –sichqoncha, quyoncha, buratino, kush, jonivorlar, ular tanalarining ayrim qismi) kishi ko'z o'ngiga keladi. Yeryong'oqni turli keraksiz narsalardan tozalab olib unga ko'shimcha ishlov berib turli narsalarning shaklini yasash mumkin. Yeryong'oqni akvarel bo'yoqlarida bo'yab turli ranglarga kiritish, igna bilan teshib shaklini boshqa qisimlarini o'rnatamiz rangli qog'ozlardan foydalanib dum, qanot, ko'z, burun, quloq va boshqa a'zolari joylashtiramiz.

Eryong'oqni ikkiga ajratib yoki ajratmasdan ishlov berish kerak bo'ladi. Ishlov berish jarayonida turli o'tkir tig'li asboblardan va materiallardan foydalanamiz. Asboblardan foydalanish jarayonida texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilishimiz lozim. Materiallarni isrof qilmasdan to'g'ri foydalanishimiz, estetik va badiiy tomonlariga etibor berishimiz kerak.

Masalan shaftoli, yong'oq, o'rik danaklarini ikkiga ajratish orqali, har bir bo'lagidan toshbaqa, qo'ng'iz yoki tipratikan shaklini yasasa bo'ladi. Yong'oq ishlov berilishi oson hamda pishiq materialdir. Ikki bo'lagini plastilin bilan birlashtirib, juda ajoyib o'yinchoqlar hosil qilsa bo'ladi.

TABIIY URUG'LARDAN APPLIKATSIYA USULIDA NAQSH TUZISH

O'qituvchiga tavsiya: Applikatsiyaning turlari. Geometrika shaklli applikatsiya. Geometrik figuralardan predmetli applikatsiyalar. Badiiy applikatsiyalar. Ko'p rangli applikatsiyalar haqida tushuncha. Applikatsiyaning materiallari haqida tushuncha. Applikatsiya sa'nati.

Qadimdan meros bo'lib kelayotgan Naqsh milliy amaliy san'at turi. Naqshlarni qadimiy binolarda, eshik-romlarda, gilamlarda, so'zanalarda, idishlarda va boshqa joylarda uchratilishi, naqshlar tabiatdagi go'zallikni o'zida aks ettirishi.

Darsning maqsad va vazifalari	Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga meva, poliz ekinlari urug'lari, applikatsiya usuli, naqsh turlari haqidagi bilim va tushunchalar berish. Urug'lardan applikatsiya usulida naqsh tuzishga o'rgatish. Tarbiyaviy maqsad: Tabiatga mehr uyg'otish, tabiiy narsalardan qurish-yasashga qiziqish o'yg'otish, mustaqil, ijodiy fikrlashni tarbiyalash. Rivojlantiruvchi maqsad: Urug'lardan foydalanib applikatsiya usuli orqali yo'lsimon naqsh yasay olish malakalarini rivojlantirish.
Darsning jihozlari	Ko'rgazmali vositalar: Turli poliz ekinlari, meva urug'lari namunalar, applikatsiya ish turlaridan namunalar, slaydli namoyishlar. Ko'rgazmali jihozlar: Qovun va tarvuz va meva urug'lari, qog'oz, qaychi, qalam, chizg'ich, yelim, latta.
Dars jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: Og'zaki bayon qilish, tushuntirish, tahlil qilish, aqliy hujum Shakl: Amaliy mashg'ulot, savol-javob, test Baholash: Rag'batlantirish, 5 ballik tizimda baholash
Dars jarayonini amalga oshirish bosqichlari	Tashkiliy qism: 10 daqiqa Darsga hozirlik ko'rish Uyga vazifani mustahkamlash Asosiy qism: 25 daqiqa Yangi mavzuni bayon qilish Amaliy ish Yakuniy qism: 10 daqiqa Yangi mavzuni mustahkamlash O'quvchilar bilimini baholash Uyga vazifani belgilab berish
Natija: (rasm)	

Darsning borishi:***Tashkiliy qism:***

Salomlashish

Davomatni aniqlash

Uy vazifasini o'rganish (sabzavot va meva urug'larini tayyorlab kelish)

Ish joyi, kerakli ish qurol va materiallarni tayyorlash.

Asosiy qism: Aqliy hujum

O'qituvchi darsning boshlanishida o'quvchilarni meva, poliz ekinlari urug'laridan applikatsiya usulida yo'lsimon naqshlar tuzish haqidagi bilim va tasavvurlarini aniqlaydi.

- Qanday meva, poliz ekinlarini bilasiz?
- Ularning urug'larini ajrata bilasizmi?
- Meva, poliz ekinlari urug'laridan qanday foydalansa bo'ladi?
- Naqshlarning turlarini bilasizmi?
- Urug'lardan applikasiyalari yasab ko'rganmisiz?

Yangi mavzu bayoni:

O'lkamizga oltin kuz faslida turli sabzavot, meva, poliz ekinlarining hosili.

Turli meva va sabzavot, poliz ekinlarining urug'lari texnologiya darsi materiali sifatida qo'llanilishi. Urug'laridan xilma-xil applikatsiya ishlarini bajarish. Applikatsiya yasashda turli xil urug'lardan foydalanish mumkinligi, sabzavot va meva urug'lari turli shakllarda va turli ranglarda bo'lishi, ular aslo bir-birini takrorlamasliklarini haqida suhbat.

Sabzavot urug'laridan qovun va tarvuz urug'larini ko'rsatib, izohlab beriladi.

Qovun urug'i: rangi och sariq, shakli cho'zinchoq, usti yupqa parda bilan qoplangan, sinadi, bukiladi, yelimlanadi, suvni o'ziga sekin shimadi.

Tarvuz urug'i: rangi to'q jigar rang, shakli oval, usti yupqa parda bilan qoplangan, sinadi, bukiladi, yelimlanadi, suvni o'ziga sekin singdiradi.

Amaliy ish: (darslik bilan ishlash)

O'qituvchi o'quvchilarning amaliy ishga o'quvchilar ish joyini ko'rib chiqadi. Kamchiliklarni bartaraf etadi.

- Qog'ozga tanlab olingan naqsh turini qalam yordamida chizib olish;
- Ishlatiladigan urug'larini maxsus idishda saqlash;
- Chizilgan naqsh yo'li bilan urug'larni ketma-ketlik bilan yelimlash;
- Tayyor applikasiya ishini o'qituvchi o'quvchilar birgalikda izohlab tahlil qiladilar.

Yakuniy qism.

Dars oxirida tayyor bo'lgan ishlar o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi.

Har bir o'quvchi bajargan ishiga qarab izohli baholanadi.

Darslikda ko'rsatilgan applikatsiya ishini tugatish uyga vazifasi beriladi.

O'qituvchiga eslatma: Kelgusi dars mavzusining amaliy mashg'ulotiga zarur ish qurol va materiallarini belgilash va o'quvchilarga tayinlash.

Amaliy mashg'ulot: Aplikatsiya usulida panno tayyorlash

Texnologik xarita

T/r	Ishning borishi	Amaliy ish	Kerakli asboblari
1	Och rangli gulsiz qattir mato tanlanadi. Mato ustiga turli naqshli matolar qoldiqlari qirqib yelimlanadi		Mato, yelim, qaychi
2	Naqshlar ketma-ket yelimlanadi		Mato, yelim, qaychi
3	Naqshli gullardan to'liq kompozitsiya yaratiladi		Mato, yelim, qaychi



Yangi mavzuni mustahkamlash: Jadval ichida yozilgan tabiiy materiallar nomini toping.

A	B	R	T	A	B	Y	U	A
N	Q	O	V	O	Q	A	I	U
T	A	R	V	U	Z	B	L	B
S	p	A	X	t	A	X	P	I
A	B	Q	O	V	U	N	X	A

Qovoq,tarvuz,qovun,Paxta

Baholash: Darsda faol qatnashgan, uyga vazifani a'lo bajargan, amaliy ishda yaxshi ishtirok etgan o'quvchilarni baholang va rag'batlantiring!

Uyga vazifa: Mavzuni o'qib o'rganish. Mustaqil naqsh kompozitsiyasini yaratib ko'ring. Naqsh kompozitsiyasida jonli tabiat namunalarini aks ettirishga harakat qiling.

Savol va topshiriqlar:


- 1.Gazlama turlari haqida izoh bering**
- 2.Panolar qaysi materiallardan tayyorlanadi?**
- 3.Kashtachilik san'ati turlarini aytib bering.**

“Urug’ni o’z o’rniga qo’y” o’yini

Qovun	Tarvuz	Qovoq	Ko’ngaboqar

Ko’rsatma: O’qituvchi oldindan tayorlangan urug’larni aralashgan holda 4 ta idishga soladi. 4 nafar o’quvchi doskada yoki o’qituvchi ijodi bilan tayyorlangan ko’rgazmada topshiriqni belgilangan vaqt ichida topshiriqni bajaradi.

Tabiiy materiallardan mozaika ishlari



Mozaika manumental dekarativ san’at turlaridan biridir. Turli davrlarda va turli mamlakatlarda mozaika qo’llaniladigan materiallariga ko’ra ham, naqshi va

rasmlariga ko'ra ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. O'rta Osiyoda madrasalar, masjidlar, xukumdorlarning saroylari mozaika bilan bezatilgan. Mozaika hozirgi kunda manumental san'atga aylangan. Mozaika bilan binolarning tashqi qisimlarini, devorlari va halq amaliy san'ati asarlari bezatiladi. Mozaika ishlarida oyna, sopol plitalaridan foydalaniladi.

Tuxum po'chog'idan ham ajoyib mozayka va boshqa ishlarni bajarish mumkin.

Tuxum po'chog'ini butun foydalanish uchun tuxumni ikki uchi teshiladi va uning ichidagilar puflab chiqariladi. Buning natijasida ichi bo'sh tuxum po'chog'iga ega bo'ladi. Bunday po'choqni sinuvchan bo'lganligi uchun qutichalarda saqlash kerak. Tuxum po'chog'ini maydalanganligini har qanday xom va pishgan tuxumdan tayyorlash mumkin. Faqat ichki pardasi olib tashlanishi kerak.

1. Tuxum po'stidan mozaika ishlarini bajarish uchun yuvib kuritilgan tuxum po'sti mo'yqalam yordamida akvarel bo'yoqlari bilan kerakli ranglarga bo'yaladi.
2. Bo'yoq qurigandan keyin tuxum po'stini tanlangan rasmga ko'ra mayda va yirik bo'laklarga bo'linadi.
3. Tuxum po'stidan mozaika yasashda shunday tasvirni tanglash kerakki ularning konturlari mumkin qadar tekis va mayda egri – bugrilari bo'lmasligi kerak.
4. Shakl sathi qora qalam orqali o'tkaziladi yoki shablondan aylantirib chiziladi.
5. Avval rasm sathining bir qismiga yelim surtiladi. U yerga tuxum po'sti terib chiqiladi, keyin ikkinchi qismiga ham shu tartibda davom ettiriladi.
6. Ortiqcha yelim toza latta bilan artib tozalanadi, po'st yaxshiroq yopishishi uchun ustidan sekin bosib qo'yiladi.

Bunday ish odatda eng oddiy shakllardan boshlanadi. Keyinroq shakllar ancha murakkablashadi.

Ikkinchi bob xulosa

Mazkur ishlarning o'z vaqtida bajarilishi, tabiiy materiallardan foydalanish mashg'ulotlarining samarali o'tishda katta ahamiyatga egadir. Bu o'z navbatida o'qituvchi va o'quvchilardan katta mas'uliyat va e'tibor talab qiladigan jarayondir. Mashg'ulot uchun kerak bo'ladigan tabiiy materiallar qanchalik ko'p to'plansa, o'quvchilar tomonidan bajariladigan topshiriqlarning mazmuni ham shunchalik turli-tuman bo'ladi. Tabiiy materiallarni to'plash jarayonida o'quvchilarni atrofdagi o'simliklar dunyosi, hashorat bilan tanishadilar, daraxt, gul navlarini, nomlarini, shakllarini bilib oladilar. Tabiatni qo'riqlash, unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, uni asrab-avaylash masalalariga alohida e'tibor berishga o'rganadilar.

Tabiiy materiallar bilan ishlash o'quvchilarni tasavvurini, ijodiy qobiliyatini o'stirish bilan birga, u yoki bu tabiiy shakllar asosida biriktirish orqali o'ziga xos bo'lgan qiziqarli o'yinchoqlar va shu kabilarni yasay olish malakasini ham rivojlantiradi. Tabiiy materiallarni to'playotgan har bir o'quvchi ularni tartibli yig'ish va tayyorlash tartibini bilish, barglarni to'plash jarayonida daraxtlar, butalar, o'simliklar shoxini qo'pollik qilib sindirish, gul va shu kabilarni o'ylamasdan o'zini ona tabiatiga zarar yetkazishlarini anglashlari lozim.

Har bir tabiiy material turlicha ishlov berish, har xil asboblardan foydalanishni talab qiladi va ularni ishlatish ma'lum bilim ko'nikma va malaka talib qiladi.

Tabiiy materiallar to'plash o'qituvchi qo'ygan maqsadga bog'liq bo'ladi. O'quvchilar ko'rib chiqilgan va batafsil muhokama qilingan yoki o'zlari tanlagan manzara uchun material to'playdilar va aksincha avval qandaydir materialni to'plab, keyin mavjud materiallar asosida ishni bajarishni aniqlashlari mumkin

3.BOB. TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJASI VA TAHLILI

3.1 Tajriba-sinov ishlari mazmuni

Boshlang'ich sinf texnologiya ta'limi darslarida tabiiy materiallardan buyumlar tayyorlashni o'rgatishda o'quvchilarning bilimlarini baholashda tajriba-sinov ishlari uch bosqichda olib borildi.

- boshlang'ich baholash;
- joriy, ya'ni shakllantiruvchi baholash;
- yakuniy, ya'ni umumlashtiruvchi baholash.

Boshlang'ich baholash – texnologiya ta'limi fani bo'yicha o'quvchilarning bilimini ularga berilgan o'quv materialini o'rganish jarayonining boshlanishida o'quvchilarning texnologiya fani bo'yicha dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Bunday baholash natijalari o'quv materialini o'rganish bo'yicha ta'lim jarayonining mazmunini, usullari va shakllarini tanlash imkonini beradi.

Joriy (shakllantiruvchi) baholash o'quvchilar o'rtasida o'quv materialining o'rganish davomida muntazam ravishda o'tkazib boriladi. U

ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, ta'lim jarayoni samarasini tezkor aniqlab borish, o'quv jarayonini muvofiqlashtirish, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi teskari aloqani ta'minlash imkonini beradi.

Odatda tajriba-sinov va nazorat guruhlarida o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish darajalari yakuniy baholashda taqqoslanadi va mashg'ulotlarni olib borishning pedagogik samaradorligi aniqlanadi.

Yakuniy (umumlashtiruvchi) baholash – o'quvchining texnologiya ta'limi fani bo'yicha o'quv materialini ma'lum davrdagi o'zlashtirish natijalarini belgilangan mezon va standartlarga javob berishini aniqlaydi. Yakuniy baholash ta'lim jarayonining ma'lum bosqichi yakunida o'tkaziladi.

O'tkazilgan tajribalar natijasida yakuniy umumlashtiruvchi baholashni o'tkazishda quyidagilarga e'tibor berish lozimligi aniqlandi:

- Nazorat va tajriba-sinov sinflarida umumlashtiruvchi baholash nima maqsadda o'tkazilishi haqida o'quvchilar ma'lumotga ega bo'lishi lozim.
- Baholash o'tkazish vaqtida o'quvchi o'zini erkin tutishi va noxushlik his qilmasligiga imkon yaratish kerak.
- O'quvchining o'quv materialini o'zlashtirganlik darajasi oldindan belgilangan natijalar mezoni yordamida baholanishi lozim.

Kursni bitirish ishini amalga oshirish dasturiga binoan o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni sifatining statistik tavsifini tuzish ko'zda tutilgan edi. Bu umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida texnologiya ta'limi o'quv fanini o'qitish bo'yicha ishlab chiqqan dastur va metodikamiz mazmunining samarali ekanligini baholash imkonini berdi.

Dastlabki darslardayoq o'quvchilar tabiiy materiallar, turli materiallar bilan ishlar ekanlar, texnik elementlar bilan tanishadilar, qism va detal, oddiy yig'ish, detallarni biriktirishning qattiq, suriladigan, olinadigan usullari va buyumlar haqidagi tasvvurga ega bo'ladilar. O'quvchilar detallarni biriktirishning turli usullari shunungdek, mix bilan tirqish qoldirib biriktirish kabilar bilan tanishadilar. Bir yoki bir nechta detallardan tashkil topuvchi oddiy narsalar misolida bolalar

pishqlikni oshirish, ishqalanishning zararli tahsirini bartaraf etib, foydali tahsirdan foydalanish, o'zlari ishlayotgan materiallarning tuzilishi haqida tasavvurga ega bo'ladilar. O'quvchilarda narsalarni yasash ustida ishlash tartibini mo'ljallash, tayyorlash, yig'ish, bezash, amalda tekshirish, nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilish, ish joyini to'g'ri tashkil qilish kabilar haqida tasavvuri shakllanadi. Bularning barchasidan keyinchalik modellar hamda texnik o'yinchoqlarni yasashda foydalaniladi, ular bolalarning ijodiy fikrini o'stiradi, bolalarga to'plangan texnologiya tajribalarini atrofdagilarga texnika bilan bog'lashlariga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limi darslari jarayonida tajriba-sinov ishlarini tizimini tashkil qilish va uning haqqoniyligini ta'minlash maqsadida olingan natijalarning amaliy ahamiyatini tasdiqlovchi va bir-birini to'ldiruvchi metodlar majmuasini qo'lladik.

Tajriba -sinov ishlarini amalga oshirish uchun 2022-2023 o'quv yillar mobaynida Toshkent shaxar 26 -umum ta'lim maktablarining **3-sinf** o'quvchilari bilan tadqiqot o'tkazildi.

Tajriba – sinov ishlariga **50** nafar o'quvchi jalb qilindi. Tajriba guruhlarida zamonaviy dars ishlanmalari asosida, nazorat guruhlarida esa an'anaviy uslubda amalga oshirildi.

№	Tajriba-sinov v maydonlari	Maktab №	sinflar	Tajriba guruhi
		26-maktab	3a sinf	25
			3b sinflar	25

Tajriba-sinov ishlarining izlanuvchan va ta'kidlovchi bosqichlarida umumiy o'rta ta'lim maktablari **3-** sinf o'quvchilariga applikatsiya turlari shakllari xaqidagi bilimlari tekshirib ko'rildi.

I-daraja – applikatsiya xaqidagi bilim darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar. Ular applikatsiya to'g'risida yuqori doirada ma'lumotga egadir.

II-daraja – oʻrtacha bilimga ega boʻlgan oʻquvchilar.

Bu guruhga kiruvchi oʻquvchilar applikasiya turlari shakllari toʻgʻrisida tushunchaga ega, biroq ular oʻz shaxsiy sifatlari va bilim darajasiga javob beruvchi aniq shakllangan bilimlar doirasini belgilab olmagan.

III-daraja – past bilimga ega boʻlgan oʻquvchilar.

Oʻquvchilarda muayyan turli materiallar mavzulariga qiziqish davriy xususiyatga ega boʻladi va vaqt oʻtishi bilan oʻzgarib turadi.

Jumladan 3a sinf oʻquvchilaridan 5 nafari 100 foiz bilim darajasi yuqori boʻlgan oʻquvchilar yaʼni aʼlo baho olgan boʻlsa, 12 nafari 80 foizgacha, 8 nafari 70 foizdan kam ball olishga muvaffaq boʻlgan.

Jumladan 3b-sinf oʻquvchilaridan 1nafari 100 foiz bilim darajasi yuqori boʻlgan oʻquvchilar yaʼni aʼlo baho olgan boʻlsa, 10 nafari 80 foizgacha, 14 nafari 70 foizdan kam ball olishga muvaffaq boʻlgan.

№1	26-maktab	sinf	70 %	80 %	100 %
		3 a	8	12	5
		3 b	14	10	1

Ular bilan oʻtkazilgan suhbatda turli materiallar mavzulariga qiziqish turli material turlari ulardan narsalar yasash hamda chiqindi materiallardan turli buyumlar yasash usullari xaqida bilimlar berildi va rasmlar orqali tasavvurlari shakllantirildi. Natijada koʻzlangan maqsadga erishildi.

Uchunchi bob xulosa

Texnologiya taʼlimida turli va tabiiy materiallar bilan ishlash vazifalari haqida gapirilganda, oʻquvchilarda mehnatsevarlik, masʼuliyat, intizomlilik, burch

hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashni tilga olmaslik mumkin emas. Shu bilan birgalikda texnologiya odamlar tirikchiligining moddiy va ma'naviy ta'minotining vositasi, jamiyat taraqqiyotining eng muhim omilidir.. Texnologiya o'quvchilarning bilim olishiga intilishlarini qo'zg'atuvchi vositagina emas, balki uning manbayi hamdir. Texnologiya ta'limi jarayonida ta'limida turli va tabiiy materialllar bilan ishlash o'quvchilarni aqliy jihatdan o'stirishda ahamiyatga egadir. Biroq har qanday Texnologiya ham aqliy o'sishga yordam bermasligini unutmasligimiz kerak. O'quvchilarda texnologiya ta'limida turli va tabiiy materialllardan narsalarni yasash ustida ishlash tartibini mo'ljallash, tayyorlash, yig'ish, bezash, amalda tekshirish, nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilish, ish joyini to'g'ri tashkil qilish kabilar haqida tasavvuri shakllanadi. Bularning barchasidan keyinchalik modellar hamda texnik o'yinchoqlarni yasashda foydalaniladi, ular bolalarning ijodiy fikrini o'stiradinarsalarni yasash ustida ishlash tartibini mo'ljallash, tayyorlash, yig'ish, bezash, amalda tekshirish, nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilish, ish joyini to'g'ri tashkil qilish kabilar haqida tasavvuri shakllanadi.

UMUMIY XULOSALAR

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf texnologiya ta'limi darslarida tabiiy materiallardan buyumlar tayyorlashni o'rgatishda zamonaviy pedagogik va o'yinli texnologiyalar asoslarini o'rgatish borasida olib borilgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, mazkur jarayonga nisbatan yangicha, texnologik yondoshuvning qaror topishi, o'quvchilar o'rtasida mashg'ulotlardagi turli xil pedagogik vaziyatlarni hal qilishda pedagogik o'yinli texnologiyalardan foydalana olish faoliyatini ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan birgalikda olib borishda uning mohiyati, ijtimoiy ahamiyati, o'ziga xos xususiyatlari, o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kasbiy maxoratini oshirish

borasidagi olib borilgan tadqiqotning umumiy yakunlari ijobiy ekanligi aniqlandi. SHuningdek, tajriba-sinov ishlari natijalariga tayangan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Boshlang'ich sinf texnologiya ta'limi darslarida tabiiy materiallardan buyumlar tayyorlashni o'rgatishda pedagogik o'yinlar asosida olib borishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganildi.

2. Boshlang'ich sinf texnologiya ta'limi darslarida tabiiy materiallardan buyumlar tayyorlashni o'rgatish bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalari mazmunini aniqlandi.

3. Boshlang'ich sinf texnologiya ta'limi darslarida tabiiy materiallardan buyumlar tayyorlashni o'rgatishda o'quvchilarga yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashning asoslarini o'rgatishda, o'quvchilarning kasbiy qobiliyat va qiziqishlarini inobatga olgan holda mashg'ulotlarni olib borishda interfaol metodlarni – pedagogik o'yinli texnologiyalarni qo'llash metodikasi ishlab chiqildi.

4. O'tkazilgan tajriba-sinov natijalarining tahlili shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf texnologiya ta'limi darslarida tabiiy materiallardan buyumlar tayyorlashni o'rgatishda ilg'or pedagogik va o'yinli texnologiyalaridan, qo'llanmalardan foydalanish natijasida o'quvchilarning o'zlashtirishi bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichi oshdi. Bu esa umumta'lim maktablarida texnologiya ta'limi jarayonida zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalanish natijasida yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Magzumov P.T. O'quvchilarni texnologiyaga va kasb tanlashga tayyorlash. – T.: O'qituvchi, 1991. -208 b.
2. Musurmonova O.O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. - T.: Fan, 1993. - 105 b.
3. R.A. Mavlonova “Pedagogika” T., “O'qituvchi” 2008 yil
4. R.A. Mavlonova, Sanaqulov X.R. Xodieva D.P “Texnologiya va uni o'qitish metodikasi” TDPU. 2007 yil
5. Sanaqulov X.R. Xodieva D.P “Texnologiya ta'limidan amaliy ishlar” TDPU 2007 yil
6. Sanaqulov X.R. Xodieva D.P “Texnologiya” Ikkinchi sinf o'quvchilari uchun darslik. T. “SHarq” 2012 yil.

7. R. Hasanov, H. Egamov “Tasviriy sa`nat va badiiy texnologiya” T. “O`qituvchi” 1997 yil.
8. V. Pereverten. “O`quvchilarda ijodkorlikni shakllantirish” T. “O`qituvchi”. 1990y.
9. Nurmatova M.SH. Hasanova Sh.T “Yumshoq o`yinchoqlar” Toshkent. TDPU. 2005 y
10. Nurmatova M.SH. “Texnologiya tarbiyasi” Toshkent. TDPU. 2005 y
11. R. Hasanov, H. Egamov “Tasviriy sa`nat va badiiy texnologiya” T. “O`qituvchi” 1997 yil.
12. V. Pereverten. “O`quvchilarda ijodkorlikni shakllantirish” T. “O`qituvchi”. 1990y.
13. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T “Barglar mu`jizasi” Toshkent. TDPU. 2005 y
14. Nurmatova M.Sh. “Mexnat tarbiyasi” Toshkent. TDPU. 2005 y
15. Sanaqulov X.R. Xodieva D.P “Mehnat ta`limidan amaliy ishlar” TDPU 2007 yil.
16. Magzumov P.T. va boshq. O`quvchilarni mehnatga va kasb tanlashga tayyorlash. – T.: O`qituvchi, 1991. – 208 b.
17. Musurmonova O. O`quvchilarning ma`naviy madaniyatini shakllantirish. - T.: Fan, 1993. - 105 b.
18. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o`quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish: ped.fan.dokt. ... diss. – T.: 2000. – 305 b.
19. Ochilov M., Ochilova N. O`qituvchi odobi. - T.: O`qituvchi, 1998. - 94 b.
20. Babanskiy Y. K. Hozirgi zamon umumiy tahlim maktabida o`qitish metodlari. T.: «O`qituvchi», 1990 – 230 bet.
21. Bulatov S. S. Yoshlarga hunar o`rgatishning milliy-anhanaviy asoslari. T.: RM. 1999 – 20 bet.
22. Vorobyov L. I. Mehnat tahlimi va kasb tanlashga yo`llash metodikasi. – T.: «O`qituvchi», 1980 – 280 bet.

23. Davlatov K. D., Chichkov V. A. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash. – T.: «O'qituvchi», 1978 – 144 bet.
24. Karimov I. I. Mehnat tahlimi darslarining samaradorligini oshirish. Qo'qon.: 1995 – 40 bet.

ILOVALAR

Mavzu: Urug'lardan mozaika yasash.

O'qituvchiga tavsiya: Qo'l mehnatiga o'rgatishda ish turlarining usullari. Mozaika monumental dekorativ sa'nat turlaridan biridir. Turli davrlarda va turli mamlakatlarda mozaika qo'llaniladigan materiallariga ko'ra ham naqsh va rasmlarga ko'ra ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. O'rta Osiyoda madrasalar, machitlar, saroylar mozaika usulida bezatilgan.

Mozaika mos shaklni chizib olish. Maydalangan rangli qog'oz bo'laklarini tayyorlash. Kerakli shaklni konturini tasvirlash. Konturga maydalangan qog'oz bo'laklarini bosqichma-bosqich yelimlash. Qo'shimcha ishlov berish.

Hozirgi kunda mozaika bilan binolarning tashqi qismlari, devorlari va xalq amaliy san'ati asarlari bezatiladi. Mozaika ishlarida oyna, sopol, plita bo'laklardan, foydalaniladi.

O'qituvchi quritilgan urug'lardan tuzilgan naqsh namunalarini ko'rsatadi.

Darsning maqsad va vazifalari	Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga amaliy san'ati haqidagi bilim va tasavvurlar berish. Mozaika usulida Qo'qongul shaklini yasashga o'rgatish. Tarbiyaviy maqsad: Mozaika san'atiga qiziqish uyg'otish. O'z mehnatidan qoniqish va zavqlana olishni tarbiyalash. Rivojlantiruvchi maqsad. Qog'ozni mayda qirqish, quritilgan urug'larni yelimlash orqali mozaika usulida yasay olish malakalarini rivojlantirish.
Darsning jihozlari	Ko'rgazmali vositalar: Mozaika ishlaridan namunalar, gullar rasmi, mozaikani yasash bosqichlari, slaydlar. Ko'rgazmali jihozlar: Rangli qog'oz to'plami, qaychi, qalam, chizg'ich, yelim, latta.
Dars jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: Og'zaki bayon qilish, tushuntirish, tahlil qilish, aqliy hujum SHakl: Amaliy mashg'ulot, savol-javob Baholash: Rag'batlantirish, 5 ballik tizimda baholash
Dars jarayonini amalga oshirish bosqichlari Natija:	Tashkiliy qism: 10 daqiqa Darsga hozirlik ko'rish Uyga vazifani mustahkamlash Asosiy qism: 25 daqiqa Aqliy hujum Mavzuni bayon qilish Amaliy ish Yakuniy qism: 10 daqiqa Yangi mavzuni mustahkamlash O'quvchilar bilimini baholash

	Uyga vazifa belgilash
---	-----------------------

Darsning borishi

Tashkiliy qism:

Salomlashish;

Davomatni aniqlash;

Uy vazifasini tekshirish;

Ish joyi va ish qurol va materiallarini tayyorlash.

Asosiy qism: Aqliy hujum

O'qituvchi darsning boshlanishida o'quvchilarni qog'ozni mayda qirqish, qurutilgan urug'larni yelimlash orqali mozaika usuli haqidagi bilim va tasavvurlarini savol – javob yordamida aniqlash.

- Mozaika usuli nima?
- Qog'ozni mayda qirqimi, qurutilgan urug'lari qanday yopishtiriladi?
- Qaerlarda mozaika usulida bajarilgan ishlarni ko'rgansiz?
- O'zbekistonda qanday gullar yetishtiriladi?
- Ularni tasvirlab bering?
- Ularning shakli, rangi, hidi bir xilmi?

Yangi mavzu bayoni:

Meva va sabzavotlar, poliz ekinlari urug'lari, rangli ko'zgu parchalari, mayda qog'oz bo'laklaridan ajoyib mozaika asarlari yaratilishi, ulardan sovg'a sifatida foydalanish. Bo'sh vaqtlar uchun yaxshi mashg'ulot bo'lishi haqida tushuncha berish.

Boshlangich ta'lim 4 kurs talabasi M.Kerimovaning “ 3- sinf texnologiya darsida turli ish materiallaridan amaliy ishlarni tashkil etish ” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga rahbar

XULOSASI

Hozirgi vaqtda o'quvchilarga tabiiy materiallar bilan ishlash o'rgatishning asosiy vazifalardan biri-aholini sifatli,ishlar buyumlari, zamonaviy ko'rgazma materiallar bilan ta'minlashdan iborat. Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonlari samaradorligini oshirish uchun , sa'noat korxonalarini zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash, materiallarning assortimentlarini kengaytirishi zarur.

O'zbekiston Respublikasida ommaviy ta'lim doirasini yanada kengaytirish ko'zda tutilgan. Milliy dasturda ta'kidlanganidek ta'lim tizimini barkamol insonni voyaga yetkazuvchi yaxlit muhim va yagona texnologik dinamik jarayon deb atash mumkin. Chunki ta'lim oluvchi ushbu tizimning bir bosqichida undan keyingi bosqichda - ta'lim olish uchun tayyorlanadi va bunda bir bosqichda olgan bilimlar asosida keyingi bosqichga o'tadi va olgan bilimlarini rivojlantiradi. Bunda bilim yuqorida qayd etgan uzluksizlikdagidek o'zlashtirilgan axborotdan iborat bo'ladi, ya'ni ta'lim tizimi yaxlit axborot makonini hosil qiladi.

O'quv muassasalarining tajribasi ta'lim sifati hamda o'quv jarayonining boshqa ko'rsatkichlarini takomillashtirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim tizimining eng ob'ektiv usullaridan biri ekanligidan dalolat bermoqda. Bu esa bizning davlatimiz ta'lim tizimidagi pedagogik texnologiyalarining yangilarini qo'llash imkoniyatlarini ko'rib chiqishni taqoza etmoqda. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin sa'noatida bir qancha qo'shma korxonalarning ochilishi sohaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'sha joylarga ekskursiyalar uyushtirishga, hamda Texnologiya mashg'ulotlarini yanada rivojlantirishga imkon beradi. Ushbu bitiruv malaka ish talabga javob beradi. BMI yakunlangan hisoblanib himoyaga tavsiya etiladi.

Raxbar:

p.f.n., provessor v.b. X. Sanakulov

Boshlang'ich ta'lim 4 kurs talabasi Sh. Bozorovanning “ 4- sinf texnologiya darsida turli matolardan amaliy ishlarni tashkil etish texnologiyasi ” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

O'zbekiston Respublikasida ommaviy ta'lim doirasini yanada kengaytirish ko'zda tutilgan. Milliy dasturda ta'kidlanganidek ta'lim tizimini barkamol insonni voyaga yetkazuvchi yaxlit muhim va yagona texnologik dinamik jarayon deb atash mumkin. Chunki ta'lim oluvchi ushbu tizimning bir bosqichida

undan keyingi bosqichda - ta'lim olish uchun tayyorlanadi va bunda bir bosqichda olgan bilimlar asosida keyingi bosqichga o'tadi va olgan bilimlarini rivojlantiradi.

O'quv jarayonining boshqa ko'rsatkichlarini takomillashtirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim tizimining eng ob'ektiv usullaridan biri ekanligidan dalolat bermoqda. Bu esa bizning davlatimiz ta'lim tizimidagi pedagogik texnologiyalarining yangilarini qo'llash imkoniyatlarini ko'rib chiqishni taqoza etmoqda .

Hozirgi vaqtda o'quvchilarga tabiiy materiallar bilan ishlash o'rgatishning asosiy vazifalardan biri-aholini sifatli,ishlar buyumlari, zamonaviy ko'rgazma materiallar bilan ta'minlashdan iborat. Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonlari samaradorligini oshirish uchun , sa'noat korxonalarini zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash, materiallarning assortimentlarini kengaytirishi zarur.

O'quv muassasalarining tajribasi ta'lim sifati hamda o'quv jarayonining boshqa ko'rsatkichlarini takomillashtirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim tizimining eng ob'ektiv usullaridan biri ekanligidan dalolat bermoqda. Bu esa bizning davlatimiz ta'lim tizimidagi pedagogik texnologiyalarining yangilarini qo'llash imkoniyatlarini ko'rib chiqishni taqoza etmoqda. Ushbu bitiruv malaka ish talabga javob beradi .BMI yakunlangan hisoblanib himoyaga tavsiya etiladi.

Taqrizchi:

professor M.Jumayev